

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 259 (1048), 2023-yil 13-dekabr, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



INSON QADRI MAHALLA TINCHLIGI, ODAMLAR XOTIRJAMLIGI VA XAVFSIZ HAYOT BILAN YUKSALADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi yashash sharoitlari, qishga tayyorgarlik va obodonchilik ishlarini ko'rish maqsadida 12-dekabr kuni Toshkent shahridagi mahallalarda bo'ldi.

Dastlab "Toshkent issiqlik markazi" korxonasi uchun Uchtepa tumanidagi issiqlik markazi borib ko'ildi. Davlatimiz rahbari bundan roppa-rosa bir yil oldin bu yerga kelganida ahvol juda ayanchli edi. O'tgan qishda havo keskin sovgan paytlarda issiqlik ishlab chiqarish muammo bo'lgandi. Shu bois, Prezidentimiz tarmoqlarni ta'mirlash va barqarorligini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar bergan edi.

Bu galgi tashrif chog'ida mutasaddirlar shu haqda axborot berdi. Berilgan topshiriqlar to'la amalga oshirilgan. Majmua qozonxonasi jami 700 Gkal quvvatga ega, mingdan ortiq ko'p qavatli uy va 400 dan ziyod ijtimoiy muassasalarga issiqlik yetkazib beradi.

Joriy yilda mazut xo'jaligi va sig'imlari qurilib, qozonlarning ikkita aralash shaklda — gaz va mazutda ishlashga moslashtirilgan. Bular natijasida qozonxonada va tarmoq sovuq haroratida ham barqaror ishlaydi. Bunday paytlarda xiralangan mazutdan ishlatiladi. Quvurlar izolyatsiyasi mustahkamlangani uchun issiqlik yo'qotilishi ham kamaygan.

Davlatimiz rahbari shu yerda Toshkent shahri va Uchtepa tumani mutasaddirlari bilan mulotoq qildi. Mahallalardagi yangi "yettilik" tizimi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, ijtimoiy masalalarni aholi talabi asosida joylarning o'zida hal etib, odamlarni rozi qilish zarurligi ta'kidlandi.

Jumladan, qishga tayyorgarlik bo'yicha ko'rilgan choralarini ham odamlar sezishi kerak. Issiqlik markazlari va tarmoqlardagi mavjud muammolarni tezkor bartaraf etib borish, bino va xonadonlarda issiqlikni asrash dolzarb vazifa ekanini qayd etildi.

Shu kuni davlatimiz rahbari Toshkent shahri Ichki ishlar bosh boshqarmasining Yagona tezkor boshqaruv markazini borib ko'rdi.

Ushbu markaz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi

"Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

Zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan majmua "Geoinformatsion elektron xarita" dasturi asosida ishlaydi. Unga Ichki ishlar, Adliya, Sog'liqni saqlash, Transport va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari hamda Milliy gvardiya, Soliq qo'mitasi kabi idoralarning 55 ta elektron bazasi integratsiya qilingan. Toshkent shahridagi 10 mingdan ortiq turar va noturar joylardagi 7 ming 300 ta videokuzatuv kameralari ham ulangan.

Bu jamoat xavfsizligiga mas'ul kuch va vositalarni samarali boshqarish imkonini bermoqda. Jumladan, ko'cha va jamoat joylarida xizmat olib borayotgan xodimlar onlayn kuzatib turiladi va vaziyatga qarab yo'naltiriladi. Natijada hodisa joyiga 3-5 daqiqada yetib boriladi.

Bular "xavfsiz shahar", "xavfsiz mahalla" maqsadlarini ta'minlash, huquqbuzarliklarni erta aniqlashda muhim o'rin tutmoqda. Xususan, o'tgan davrda poytaxtda sodir qilingan 925 ta jinoyat tezkor fosh etilgan.

Yagona tezkor boshqaruv markazida "Ye-manzil", "Shakl-1", "Ye-mehmon", "Kadast" dasturlaridan ma'lumot olish ham yo'lga qo'yilgan. "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida o'qigan yoshlar tomonidan "Qalqon" nomli tizim yaratilgan.

Bularning barchasi xalqimiz oshirish talabiga mas'ul idoralarning samarali hamkorligini ta'minlab, ma'lumotlarni yaxlit dasturda qayta ishlash, tezkor vaziyat va kriminogen holatlarni avtomatik tahlil qilish, muammolarni baholash orqali to'g'ri qarorlar qabul qilish imkonini berayotir.

Prezidentimiz markazda yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi. Bu tizimdan foydalanib, mahallalardagi profilaktika inspektorlari ishini ham raqamlashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish

samaradorligini va tezkorligini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida qish mavsumini betalafot o'tkazish bo'yicha vazifalarning bajarilish holati muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Ma'lumki, o'tgan qishdagi sovuqdan kelib chiqib, bu mavsumga jiddiy tayyorgarlik ko'rdi. Ichki imkoniyatlar to'la ishga solinib, tarmoqlar modernizatsiya qilindi. Muassasa, korxonada va mahallalardagi kamchiliklar bartaraf etildi.

Qo'shimcha energetika quvvatlarini yaratish bo'yicha tizimli ishlar tashkil etildi. Natijada qisqa vaqtida 675 megavatt ishga tushirildi, yil yakuniga qadar 2,2 ming megavattli 7 ta stansiya foydalanishga topshiriladi. 100 ta podstantsiya, 11,5 mingta transformator va 34 ming kilometr tarmoqlar yangilandi.

Toshkent shahrida aholi ko'pligi va talab yuqoriligi bois, bu masalaga alohida to'xtalib o'tildi. Xususan, poytaxtimizda jami quvvati 286 megavattga teng 2 ta yangi podstantsiya qurildi. 228 ta transformator, 1 ming 130 kilometr tarmoqlar yangilandi. 260 kilometr yuqori kuchlanishli kabel tarmoqlari tortildi.

Davlatimiz rahbari bu ishlarni davom ettirib, dastur doirasida rejalashtirilgan vazifalarni qisqa muddatlarda yakuniga yetkazish zarurligini ta'kidladi.

Yig'ilishda ayrim hududlarda energetika tizimida kuzatilayotgan muammolar muhokama qilindi. Prezidentimiz ijtimoiy tarmoqlarda bildirilayotgan fikrlarga alohida e'tibor qaratdi.

Masalan, Namangan viloyatidagi gaz quyish shoxobchalarida gaz kamaygan. Andijon viloyatining Baliqchi, Paxtakobod, Marhamat va Andijon tumanlarida havo sovishi sababli elektr energiyasi bilan bog'liq muammolar ko'paygan. Qashqadaryo viloyatining G'uzor va Kasbi tumanlarida chiroq ko'p o'chayotgani ma'lum qilindi.

Davlat rahbari bunday kamchiliklarni bartaraf etish va kelgusida oldini

olish lozimligini yana bir bor ta'kidlab o'tdi. Elektr tarmoqlari va gaz ta'minoti mutasaddirlariga avariya brigadalarini shay holatga keltirib, tunu kun ishlashini ta'minlash, zarur vosita va materiallar zaxirasini ko'paytirish bo'yicha topshiriq berildi.

Bu yil ko'mir ta'minotida ham yangi tizim yo'lga qo'yildi. O'z vaqtida ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 5 million 900 ming tonna ko'mir qazib chiqarildi. Aholiga 930 ming tonna, ijtimoiy soha uchun qo'shimcha 93 ming tonna ko'mir yetkazildi.

Hududlardagi omborlarda turgan ko'miri aholiga va ijtimoiy sohaga yetkazilishini kundalik nazoratga olish, isitish tizimi davlat-xususiy sherikka o'tkazilgan obyektlarda zarur ko'mir zaxirasini yaratish kerakligi aytiladi.

Energiya resurslaridan oqilona foydalanish, qonunga xilof holatlarni cheklash muhimligi ham ko'rsatib o'tildi.

Bugundan boshlab barcha huquq-tarbiyat organlari va ijtimoiy infratuzilma xizmatlari 24 soatlik ish tartibiga o'tishi belgilandi.

Yig'ilishda Yangi yil bayrami oldidan aholi farovonligi uchun sharoitlarni yanada yaxshilash masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Madaniy tadbirlar yuqori darajada o'tkazilishi, ko'ngilochar dasturlari va xizmatlarni ko'paytirilishi qayd etildi. Bozorlarda arzonlashtirilgan savdo yarmakalari tashkil etiladi. Narx-navolarni asossiz oshirishga urinish Bosh prokuratura tomonidan nazoratga olinadi.

Shuningdek, jamoat transportlarining barqaror qatnovini ta'minlash, metro va avtobuslarda aholiga sifatli xizmat ko'rsatish muhimligi ta'kidlandi. Bekatlarda sharoitlarni yaxshilash, yo'llarni tozalash va harakat xavfsizligini oshirish masalalariga ham to'xtalib o'tildi.

Yig'ilishda qishga tayyorgarlik bo'yicha Hukumat komissiyasi va boshqa mutasaddirlarning hisoboti eshitildi.

O'ZA

O'ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI JAMOASIGA

Qadri vatandoshlar!

Hurmatli ilm-fan sohasi vakillari!

Avvalo, siz, azizlarni — zahmatkash olim va akademiklar, iqtidorli tadqiqotchilar, doktorant hamda aspirantlarni, yurtimizdagi barcha ilmiy xodimlarni bugungi qutlug' sana — O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etilganining 80 yilligi bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Ulug' alloma Mahmud Koshg'ariyning "Olimning yostig'i toshdandir", degan so'zlarida ilm ahli izlanib, mashaqqat chekib bo'lsa-da, doimo odamlarga nur ulashib yashaydi, degan hikmat mujassam ekanini sizlar albatta yaxshi tushunasiz.

Biz sizlarning timsolingizda bamisoli igna bilan quduq qazib, yangi tadqiqot va ishlarni yaratayotgan, Yangi O'zbekistonning ilmiy-intellektual salohiyatini yuksaltirib kelayotgan ana shunday fidoyi insonlarni ko'ramiz.

Ushbu qutlug' ayyomda 80 yil mobaynida g'oyat murakkab va sharafli yo'lni bosib o'tgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi yurtimizda yuzlab atqoli olim va akademiklarni tarbiyalab, ilm-fan sohalari bo'yicha nufuzli ilmiy maktablarni yaratishga katta hissa qo'shganini minnatdorlik bilan ta'kidlaymiz.

Mustaqillik davrida, ayniqsa, keyingi yillarda sizlar ana shunday yutuqlarni buyuk ajdodlarimiz asos solgan shonli analarga uyg'un holda boyitib, mamlakatimizda ilm-fan rivojini yangi bosqichga olib chiqmoqdasiz.

Akademiyasi tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, uning tarkibida yangi ilmiy tashkilotlar ochilib, tizimdagi muassasalar soni qariyb 1,5 barobar ko'paydi. Ularni to'g'ridan-to'g'ri davlat byudjetidan moliyalashtirish tartibi yo'lga qo'yildi.

Yetakchi olimlar, iste'dodli yosh ilmiy xodimlarning faoliyati va ilmiy tadqiqotlarini qo'llab-quvvatlash, jamiyatda ilm-fan namoyandalarning obro'-e'tibori va nufuzini oshirish doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmokda. Soha vakillarining ish haqi hamda doktorantlarning stipendiyasi 3 barobar, akademiklarning onorari 2 martadan ziyod oshirilgani, ilmiy darajaga ega ilmiy xodimlarning maoshiga 60 foizgacha ustama haq to'lash tizimi joriy etilgani buni tasdiqlaydi.

Fanlar akademiyasi a'zolarining ijtimoiy-maishiy sharoitini yaxshilash, sog'lig'ini tiklash bo'yicha ham tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tizimda faoliyat ko'rsatayotgan tadqiqotchilar uchun imtiyozli asosda kvartiralar ajratil-

di, oilali yosh doktorantlar bepul uy-joylar bilan ta'minlandi.

Akademiyaning nufuzli xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlardagi ilmiy markazlar bilan hamkorligi kuchayib, ular bilan birgalikda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar ko'lami ikki-uch barobar kengaydi.

Stajyor-tadqiqotchilik instituti qayta tiklanib, iste'dodli yosh tadqiqotchilarni tayyorlash sifati yaxshilandi. Hozirgi paytda O'zbekistonda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan 30 mingdan ortiq tadqiqotchilarning yarmidan ortig'ini aynan yoshlar tashkil etayotgani sohaning kelajagi ishonchli qo'llarda ekanidan dalolat beradi.

Aziz yurtdoshlar! Ma'lumki, milliy tariximizda yorqin iz qoldirgan birinchi va ikkinchi Renessanslar zaminida, avvalo, ilm-fan yutuqlari mujassamdir. Bugun biz barpo etayotgan Uchinchi Renessans poydevori ham, hech shubhasiz, inson kapitali, ilm-fan, innovatsiya va yangi kashfiyotlar asosida bunyod qilinadi.

Shu bois, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida ilmiy va innovatsion faoliyat uchun zamonaviy infratuzilmalar yaratish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash bo'yicha keng ko'lami chora-tadbirlarni belgilab oldik. Xususan, ilm-fanga yo'naltiriladigan mablag'larning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2025-yilga qadar 6 marta, 2030-yilgacha esa 10 marta oshirishni rejalashtirganmiz.

Bunday strategik vazifalarni amalga oshirishda birinchi navbatda sizlar kabi ilm-fan namoyandalarning ulkan salohiyatiga tayanamiz. Biz yurtimizdagi barcha olim va tadqiqotchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash uchun bundan buyon ham zarur kuch va imkoniyatlarni ishga solamiz.

Muhtaram bayram ishtirokchilari! Sizlarni, sizlarning timsolingizda mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirish yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan barcha yurtdoshlarimizni bugungi quvonchli ayyom bilan yana bir bor chin dildan tabriklaymiz.

G'oyat sharafli va mas'uliyatli vazifalarni ado etishda sizlarga kuch-g'ayrat, mustahkam salomatlik, oilaviy baxt, yangi yutuq va omadlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

QISHLOQ XO'JALIGIDA ERKIN BOZOR MUNOSABATLARINI YANADA RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI BELGILAB OLINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida 12-dekabr kuni paxta xom-ashyosini yetishtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari raisligida joriy yil 9-noyabr kuni o'tgan videoselektor yig'ilishida paxtachilik tarmog'ida mavjud muammolar tahlil qilinib, klasterlar va fermerlar o'rtasidagi munosabatlarni yangicha tashkil etish, paxta urug'chiligiga ilg'or yondashuvlarni joriy qilish zarurligi ko'rsatib o'tilgan edi.

Yig'ilishda ushbu topshiriqlarga muvofiq ishlab chiqilgan takliflar ko'rib chiqildi.

Jumladan, 2024-yil hosilidan boshlab paxta xom-ashyosini yetishtiruvchilar va paxta-to'qimachilik klasterlari o'rtasida munosabatlar yangi tartibda tashkil etiladi.

Chigit ekilishidan avval fermer xo'jaliklari va viloyat ichidagi klaster o'rtasida tuproq hosildorligi doirasida fyuchers shartnomalari Tovar-xom-ashyo birjasining "paxta xom-ashyosi seksiyasi"da har bir hudud uchun o'tkaziladigan savdolar orqali tuziladi.

Bunda fermer o'zi yetishtiradigan

paxtaning miqdorini birjaga joylashtiradi hamda balandroq narx taklif etgan viloyat ichidagi klaster ushbu fermer bilan fyuchers shartnomasini tuzadi. Boshlang'ich narx Nyu-York birjasidagi paxta tolasining oxirgi 12 oydagi o'rtacha narxi asosida belgilanadi.

Davomi 2-betda

ISLOHOTLAR SAMARASI

"YANGI O'ZBEKISTON" MASSIVI bunyodkorlik va taraqqiyot timsoli

Farg'ona shahri janubiy sarhadlariga tutashgan, g'yoh unmas, tosh-shag'aldan iborat keng dala-dashtda bunyod etilayotgan ekoshahar — "Yangi O'zbekiston" massivi qurilishining birinchi bosqichi yakuniy pallaga kirdi. Agar bundan ikki yil avval shu yerda zamonaviy shahar quriladi desa, biroq ishonmasdi. Bugun bu haqiqatga aylandi.

Davomi 5-betda



YANGI O'ZBEKISTON RUHI

UYG'ONISH, BIRLASHISH ONLARI MUBORAK BO'LSIN!

Poytaxtimizda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Tadbir Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashabbusi bilan Fanlar akademiyasi Tarix instituti, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va Turkiy davlatlar tashkiloti ko'magida tashkil etildi. Davlatimiz rahbari xalqaro konferensiya ishtirokchilariga murojaat yo'lladi.

Davomi 3-betda



QISHLOQ XO'JALIGIDA ERKIN BOZOR MUNOSABATLARINI YANADA RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI BELGILAB OLINDI

Boshlanishi 1-betda

Fyuchers shartnomasidan ortiqcha yetishtirilgan paxta xom-ashyosi yoki undan olinadigan birlamchi va ikkilamchi mahsulotlarni fermer xo'jaliklari to'g'ridan-to'g'ri fyuchers shartnomasi tuzgan klasterga yoki birja orqali istalgan subyektaga sotadi.

Paxta xom-ashyosi fermerlarning o'z mablag'lari, shu jumladan, tijorat kreditlari hisobidan yetishtirilganda paxta xom-ashyosi va undan olinadigan birlamchi va ikkilamchi mahsulotlar birjada erkin sotiladi.

Yig'ilishda paxta xom-ashyosini yetishtiruvchi xo'jaliklarga birjada ishtirok etish tartibi yuzasidan o'quv seminarlar tashkil etish muhimligi qayd etildi. Klasterlar va boshqa korxonalar tomonidan paxta xom-ashyosi faqat elektron tarozi orqali qabul qilinishi hamda paxta tolasini avtomatlashgan hisobga olish tizimi joriy qilinishi belgilandi.

2024-yil hosilidan boshlab fermerlar va klasterlarga paxta xom-ashyosini yetishtirish va yakuniy hisob-kitoblarni uchun Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlar ajratishning yangi tizimi joriy etiladi.

Ajratilgan kredit mablag'lari hisobidan agrotexnik tadbirlar doirasida tovarlar, ishlar va xizmatlar, shu jumladan, moddiy resurslar yetkazib beruvchilar fermer xo'jaliklari va klasterlar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Kredit buyurtmalari to'liq elektron shaklda taqdim etiladi.

Paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish tartibini ham yangilash zarurligi ta'kidlab o'tildi.

Bunda klaster tashkil etishga talabgorlar to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarining kamida ikkita bosqichini yo'lga qo'ygan bo'lishi, soliqlar va majburiy ajratmalardan hamda bank kreditlaridan muddati o'tgan qarzdorligi bo'lmasligi kerak bo'ladi.

Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi tugatilib, klaster faoliyatini tashkil etish istagida bo'lgan talabgorlar ochiq va shaffof onlayn tanlov asosida tanlab olinadi.

Qishloq xo'jaligi vazirligi klasterlar reyestrini yuritadi va ushbu reyestrni o'zining veb-saytida doimiy e'lon qilib boradi. Vazirlikka eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari tizimi bo'yicha klasterlarning avtomatlashtirilgan reyestrini yuritish dasturini yaratish topshirildi.

Yig'ilishda paxta urug'chiligi rivojlantirish hamda hosildorligini oshirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Shu maqsadda ishlab chiqilgan Prezident qarorida kelgusi yildan paxta ekiladigan maydonlarning 10 foiziga tajriba-sinov tariqasida xorijiy paxta navlarini joylashtirishga ruxsat berish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, tajriba tariqasida 14 ta tumanning ball boniteti past, suv ta'mi-

noti og'ir bo'lgan hududlarida yuqori hosildor mahalliy va xorijiy navlar joylashtirilishi belgilanmoqda.

Xorijdan olib kiriladigan paxta navlari uchun alohida agrotexnika va soddalashtirilgan karantin talablarini joriy etish, ushbu navlarni yetishtirishni maxsus karantin kuzatuvda va Paxtachilik kengashi ilmiy ko'rsatmasi asosida olib borish muhimligi qayd etildi.

Paxta-to'qimachilik klasterlari va fermer xo'jaliklari tomonidan g'o'za navlarini joylashtirishda kafolatlangan urug' ta'minotiga muvofiq erkinlik berilmoqda.

Respublikada g'o'zaning serhosil va sanoatbop yangi navlarini yaratishni rag'batlantirish maqsadida qator vazifalar belgilanmoqda.

Jumladan, mahalliy istiqbolli g'o'za navlarini ko'paytirish, uning sifatli elita urug'chiligi yo'lga qo'yish hamda navni tijoratlashtirishda klaster va fermerlarga tegishli navga hammualliflik

qilishga ruxsat beriladi. Sertifikatlanagan urug'lik tayyorlashni bosqichma-bosqich klasterlar va xususiy urug'chilik korxonalariga o'tkazish ko'zda tutilgan.

2024-yildan boshlab 30 sentnerdan past hosil berayotgan navlar muntazam aniqlanib, serhosil mahalliy va xorijiy navlarga almashtirib borish amaliyoti joriy qilinadi.

Qishloq xo'jaligi vazirligiga mazkur tizimni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish hamda Urug'chilik markazi faoliyatini transformatsiya qilishga topshiriq berildi.

O'zbekistonda tolali ekinlardan chiqadigan mahsulotlar, tola chiqimi, paxta sanoati sohasida maxsus muassasa mavjud emasligi bois, paxtachilik kengashining ilmiy-tadqiqot organi — "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ negizida Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot institutini tashkil qilish taklif etildi.

Shuningdek, mamlakatimizda Genetik modifikatsiyalangan orga-

nizmlar va ularning mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha ilmiy ekspertizasi joriy qilinadi hamda genetik modifikatsiyalangan navlar milliy bazasi shakllantiriladi. Bu orqali ishlab chiqarilayotgan va import qilinadigan GMO mahsulotlari xavfsizligini baholash, shuningdek, GMO mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish yo'lga qo'yiladi.

Sohani raqamlashtirish maqsadida 2024-yil yakuniga qadar "e-urug'" platformasi ishga tushiriladi. Unda urug'chilik korxonalar va xo'jaliklarining o'zaro integratsiyalashuvi, nav va duragaylarning urug' ta'minoti va zaxirasi, hududlarga mosligi va agrotexnologiyalari, erkin va shaffof loyihalashtirish, qayta taqsimlash, sertifikat olish imkoniyati yaratiladi.

Prezidentimiz ushbu takliflarni ma'qullab, yangi tizimni amaliyotga joriy qilish yuzasidan qator ko'rsatmalar berdi.

O'ZA

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI VA FAROVONLIK ASOSI

Boshlanishi 1-betda

Mustaqillik davrida, ayniqsa, keyingi yillarda Akademiyaning ilmiy tarkibi yuqorilari buyuk ajdodlarimiz asos solgan shonli an'analarga uyg'un holda boyitib, mamlakatimizda ilm-fan rivojini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Akademiya tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, uning tarkibida yangi ilmiy tashkilotlar ochilib, tizimdagi muassasalar soni qariyb 1,5 barobar ko'paydi. Ularni to'g'ridan-to'g'ri davlat byudjetidan moliyalashtirish tartibi yo'lga qo'yildi.

Yetakchi olimlar, iste'dodli yosh ilmiy xodimlarning faoliyati va ilmiy tadqiqotla-

O'zbekiston ilm-fani uzoq yillik tarixga ega bo'lib, bu zaminda Xorazmiy, Farg'oniy, Forobiy, Mahmud Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur singari buyuk mutafakkir va olimlar jahon fani va madaniyati tarixidan abadiy o'rin oldi.

Shu bois, Ikkinchi jahon urushi avji qizigan kezlarda — 1943-yilning 4-noyabrida O'zbekiston Fanlar akademiyasining barpo etilishi ming yilliklarga daxldor o'zbek ilm-fanida yangi bir davrning boshlanishi bo'ldi.

Fanlar akademiyasining buguni haqida so'z yuritadigan bo'lsak, yurtimizda tom ma'noda dunyoga mashhur allo-



rini qo'llab-quvvatlash, jamiyatda ilm-fan namoyandalarning obro'-e'tibori va nufuzini oshirish doimo davlatimiz e'tibori markazida bo'lib kelmoqda.

Soha vakillarining ish haqi hamda doktorantlarning stipendiyasi 3 barobar, akademiklarning honorari 2 martadan ziyod oshirilgani, ilmiy darajaga ega ilmiy xodimlarning maoshiga 60 foizgacha ustama haq to'lash tizimi joriy etilgani buni tasdiqlaydi.

Fanlar akademiyasi a'zolarining ijtimoiy-maishiy sharoitini yaxshilash, sog'lig'ini tiklash bo'yicha ham tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tizimda faoliyat ko'rsatayotgan tadqiqotchilar uchun imtiyozli asosda kvartiralar ajratildi, oilali yosh doktorantlar bepul uy-joylar bilan ta'minlandi.

Akademiyaning nufuzli xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlardagi ilmiy markazlar bilan hamkorligi kuchayib, ular bilan birgalikda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar ko'lami ikki-uch barobar kengaydi.

Stajyor-tadqiqotchilik instituti qayta tiklanib, iste'dodli yosh tadqiqotchilarni tayyorlash sifati yaxshilandi. Hozirgi paytda O'zbekistonda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan 30 mingdan ortiq tadqiqotchilarning yarmidan ortig'ini aynan yoshlar tashkil etayotgani sohaning kelajagi ishonchli qo'larda ekanidan dalolat beradi.

Tadbirida faxriy mehmonlar, xalqaro miqyosdagi nufuzli olimlar, xorijiy davlatlar fanlar akademiyalari prezidentlari so'zga chiqdi.

malarning izdoshlari yetishib chiqmoqda. Xususan, ilm yo'lida izlanayotgan yoshlarimizning bir qanchasi TWAS (Jahon fanlar akademiyasi) akademiyasining qator mukofotlarini qo'lga kiritgan. Jumladan, o'zbek matematiklaridan 4 nafari Jahon fanlar akademiyasi akademigi, 6 nafari TWASning yosh olimlar bo'limi a'zosi sanaladi.

Akademiya olimlari safiga tirishqoq yoshlar qo'shilishda davom etmoqda. Ular o'zbek ilm-fanining kelajagidir. Qolaversa, yoshlarning ilmiy tadqiqotini qo'llab-quvvatlash, ularga ko'maklashishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarning ilmiy izlanishi asosida mahalliy xom-ashyodan import o'rini bosuvchi, eksportbop ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Jumladan, olimlarimiz monosilan va polikristall kremniy olishning yangi texnologiyasini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Mazkur ishlanma O'zbekiston, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Tayvan va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida patent bilan himoyalangan.

Tadbir davomida Fanlar akademiyasi tashkil etilishi va rivojlanishi hamda mustaqillik yillarida fanning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirishga bag'ishlangan "Uchinchi Renessans poydevori" nomli hujjatli film hamda O'zbekiston san'at ustalarining konsert dasturi namoyish etildi.

Nigora RAHMONOVA,
O'ZA muxbiri

MUNOSABAT



Behzod YO'LDOSHEV,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti,
akademik

O'zbekiston Fanlar akademiyasi 1943-yil 4-noyabrda tashkil qilindi. Bugun uning 80 yillik faoliyatini sarhisob qilar ekanmiz, bu mo'tabar dargoh uzoq va samarali rivojlanish yo'lini bosib o'tganiga guvoh bo'lamiz. Fanlar akademiyasi o'tgan davrda mamlakatimizda chinakam ilm-fan markaziga aylanib, dunyo hamjamiyati hamda respublika ilmiy jamoatchiligi, shuningdek, xalqimizning e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Mana shunday qutlug' sanada davlatimiz rahbarining O'zbekiston Fanlar akademiyasi jamoasiga qutlovi bayram tantanalariga o'zgacha shukuh, ilm ahliga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. Jumladan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida ilmiy va innovatsion faoliyat uchun zamonaviy infratuzilmalar yaratish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni belgilab oldik.

Xususan, ilm-fanga yo'naltiriladigan mablag'larning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2025-yilga qadar 6-marta, 2030-yilgacha esa 10-marta oshirish-

“MANA SHUNDAY QUTLUG' SANADA DAVLATIMIZ RAHBARINING O'ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI JAMOASIGA QUTLOVI BAYRAM TANTANALARIGA O'ZGACHA SHUKUH, ILM AHLIGA KO'TARINKI KAYFIYAT BAG'ISHLADI. JUMLADAN, "O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA ILMIY VA INNOVATSION FAOLIYAT UCHUN ZAMONAVIY INFRAUZILMALAR YARATISH, ILM-FAN VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINI MUSTAHKAMLASH BO'YICHA KENG KO'LAMLI CHORA-TADBIRLARNI BELGILAB OLDIK.

ni rejalashtirganmiz. Bunday strategik vazifalarni amalga oshirishda, birinchi navbatda, sizlar kabi ilm-fan namoyandalarning ulkan salohiyatiga tayanamiz. Biz yurtimizdagi barcha olim va tadqiqotchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash uchun bundan buyon ham zarur kuch va imkoniyatlarni ishga solamiz, degan so'zlari biz, olimlarni g'oyat ruhlantirdi.

Akademiya faoliyati tubdan takomillashtirildi. Jumladan, "ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida", "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi fanga e'tiborni yanada kuchaytirdi. Prezidentimizning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ilm-fanning

ZIYO ULASHIB YASHASH BAXTI olim qismatiga bitilgan buyuk in'om

Yurtimiz qadimdan ilm-fan beshiklaridan biri bo'lgan. Ulug' bobolarimiz Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab allomalar o'z davrida fundamental tadqiqotlari bilan astronomiya, matematika, geografiya, tibbiyot, fiziologiya, kimyo, islom falsafasi kabi fanlarga asos solgan. Olamshumul kashfiyotlari bilan yetti iqlimda ma'lum va mashhur bo'lgan. Bobolarimiz tamal toshi qo'ygan ilmiy maktablar bugun ham yosh olimlar bilan gavjum.

rolini yanada mustahkamlashga qaratilgan qator farmon va qarorlari qabul qilindi. Bir paytlar oliy ta'lim va iqtisodiyot sohaslariga berib yuborilgan qator muassasalarning Fanlar akademiyasi tizimiga qaytarilgani katta islohotlardan biri bo'ldi. Natijada Fanlar akademiyasining ilmiy muassasalari soni 20 tadan 38 taga yetdi. Xodimlar soni 1,5, ilmiy xodimlar — 1,7, fan doktorlari — 2,3, fan nomzodlari/PhD — 1,5, tayanch doktorantlar — 1,9, doktorantlar soni 1,4 barobar ko'paydi. Uzoq yillik tanaffusdan so'ng 2017-yilda Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zoligiga saylov

Sharqshunoslik va Matematika institutlarining eng zamonaviy sharoitlarga ega yangi binolari foydalanishga topshirildi. O'simlik moddalari kimyosi institutida Markaziy Osiyoda yagona, GMP texnologiyasi asosida faoliyat yuritadigan, dori substansiyalari ishlab chiqariladigan korxonada hamda Yadro fizikasi instituti huzuridagi Radiopreparat davlat korxonasi tashkil etildi.

Zamonaviy xorijiy ilmiy uskunalar sotib olindi. Ulardan samarali foydalanish maqsadida jamoaviy foydalanish markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Qator viloyatlarda Matematika, Immu-

trishga yo'naltirildi. Qirqdan ortiq yangi o'simlik turi kashf etildi. "O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi"ning beshinchi nashri chop etildi. Dorivor o'simliklarning interaktiv atlas yaratildi.

Monosilan va polikristall kremniy olishning yangi texnologiyasi ishlab chiqildi hamda O'zbekiston, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Tayvan va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 20 dan ortiq patent bilan himoyalandi. Yigirmadan ortiq radioizotop, jumladan, birinchi marta Lyutetsiy-177 izotopi ishlab chiqarilib, tibbiyot muassasalariga yetkazib berilmoqda hamda eksport qilinmoqda. Mazkur sa'y-harakatlar tufayli Fanlar akademiyasi ilmiy mahsulotlarining yillik eksport qiymati 2017-2021-yillarda rejadagi ko'rsatkichlardan oshib, 5,5-5,7 million AQSH dollarini tashkil etdi.

So'nggi yillarda Fanlar akademiyasi tizimidagi ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishida ham salmoqli natijalarga erishildi. Jumladan, Sharqshunoslik instituti asosiy fondidagi 13 ming jild-dan ziyod qo'lyozmaning ingliz tilidagi elektron katalogi yaratildi va internet tarimog'iga joylashtirildi. O'zbek tilining 80 mingdan ortiq so'z va so'z birikmalarini o'zida mujassam etgan 6 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" lotin yozuvida chop etildi.

Arxeologlarimiz Axsikent yodgorligida "Ochiq osmon ostidagi muzey" tashkil qilinishida faol ishtirok etmoqda. Buning doirasida "Axsikent arxeologiya parki" kitob-albomi nashr qilindi. San'atshunos olimlarimiz O'zbekiston san'ati tarixi, rangtasviri, badiiy to'qimachiligi, zarqarligi, Rishton kulochiligi va boshqa ko'plab mavzular bo'yicha fundamental tadqiqotlar o'tkazib, yirik monografiya va kitob-albomlar nashr etilishida boshqosh bo'ldi.

Xalqaro aloqalarimiz ham yildan-yilga kengayib bormoqda. Bu o'rinda Fanlar akademiyasi "Bir makon — bir yo'l" tashabbusi doirasida xalqaro ilmiy tashkilotlar alyansining ta'sislaridan biri bo'lganini ta'kidlash joiz. Shuningdek, UNESCO, MAGATE, MAAAN va TWAS singari xalqaro tashkilotlar, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Ukraina, Belarus va boshqa davlatlarning Fanlar akademiyasi bilan samarali ilmiy hamkorlik o'rnatgan.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi o'zining 80 yilligiga ana shunday yangilanishlar, nazariy tadqiqotlar va samarador amaliy ishlanmalar bilan peshvoz chiqdi. Xalqaro ilmiy hamkorlik ko'laminin yanada kengaytirish zarurati olimlarimiz yaxshi anglaydi. Yoshlarimizning ilmiy faoliyati samaradorligini oshirishni ham davrning o'zi talab qilyapti. Fanlar akademiyasining har bir a'zosi yangi O'zbekistonda barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, bu yo'lga faol mehnat qilish mas'uliyatini yurakdan his qiladi. Bildirilgan yuksak ishonchni, albatta, oqlaydi.



nologiya va inson genomikasi hamda Polimerlar fizikasi va kimyosi institutlarining hududiy bo'linmasi tashkil etilgani hududlarda fanning rivojini ta'minlab, ba'zi muammolar yechimiga xizmat qilmoqda.

Yaratilgan shart-sharoitlardan ruhlangan olimlarimiz ham qator ilmiy yangiliklarga qo'l urmoqda. Jumladan, kvarklar soni bo'yicha jahonda rekord bo'lgan sakkiz kvarkli elementar yangi zarra kashf etildi. Maydanak observatoriyasida o'zbek astronom olimlari dunyoda birinchi bo'lib "Katta ayiq" yulduzlar turkumida yangi yulduzni ro'yxatga oldi. Shuningdek, COVID-19, surunkali virusli B va C hepatitlari, bir qancha virusli infeksiyalarning infeksiyon jarayonini immuntashxislash usullari amaliyotga tatbiq etildi. Rutan dori vositasi o'rta ochiq og'irlikdagi COVID-19 uchun samarali dori sifatida davolash standartiga kiritildi va ishlab chiqarilmoqda. G'o'zaning Porloq-7, Porloq-8, Ravnaq-1, Ravnaq-2, Baraka, Saxovat, Tafakkur, Bardosh va Zakovat, kartoshkaning Bisyor, soyaning Sochilmas hamda bug'doyning Barkamol navlari yaratilib, tijoriylashtirishga

YANGI O'ZBEKISTON RUHI

UYG'ONISH, BIRLASHISH ONLARI MUBORAK BO'LSIN!

Boshlanishi 1-betda

“O'z mohiyat e'tiboriga ko'ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo'lgan jadidchilik g'oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ushbu harakat namoyandalari Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o'ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg'or g'oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojida o'rni va ta'sirini o'rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining o'ziga xoslik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi bilan bog'liq masalalar bugungi konferensiyaning asosiy muhokama mavzulari etib belgilangan alohida ahamiyatga ega”, deyiladi murojaatda.

Darhaqiqat, jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'afat botqoq'idan qutqarishning asosiy yo'li bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildi. Ular ana shu ezgu maqsad yo'lida fidoyilik ko'rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdi. Jamiyat a'zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirish maqsadida gazeta va jurnallar nashr etdi. Yoshlarni ilg'or davlatlarga o'qishga yubordi.

Shu bilan birga, davlat boshqaruvi, sud-huquq, moliya, soliq tizimlari, yer masalalarini tadjiriy asosda tubdan isloh qilish uchun g'oyaviy va amaliy harakatlarni qildi. Bir so'z bilan aytganda, ular milliy uyg'onish, milliy taraqqiyot g'oyasini ro'yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdi. Afsuski, o'sha davrdagi mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum bu ulug'vor maqsadlarni amalga oshirishga yo'l bermadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Prezidentining inson qadri ulug'lanadigan adolati, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlari jadid bobolarimizning ezgu g'oya va dasturlariga har jihatdan uyg'un va hamohangdir, — dedi Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev. — O'zbekiston turkiy tili davlatlar tashkilotiga asos solingan davrda uning nafaqat faol ishtirokchisi, balki tashabbuskorlaridan biri ham bo'lgan edi. Shavkat Mirziyoyevning qo'shni, qardosh davlatlar va qator mintaqaviy tashkilotlar bilan ochiq va konstruktiv hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan oqilona tashqi siyosati Turkiy kengash doirasidagi aloqalarda ham hal qiluvchi rol o'ynadi. Jadidlarning g'oyalari, o'zaro birdamlik borasidagi orzu-intilishlari O'zbekiston rahbarining ayni paytdagi siyosatida o'z aksini topmoqda, desak adashmagan bo'lamiz. Yangi O'zbekiston jadid bobolar orzu qilganidek, dunyoviy, huquqiy, ijtimoiy davlat hamda fuqarolik jamiyatini bunyod etish, sifatli ta'lim tizimini yaratish, so'z erkinligi va ochiqlikni ta'minlash yo'lidan dadil odimlayotgani quvonarlidir.

Anjumanda O'zbekiston Prezidentining yordamchisi Saida Mirziyoyeva turli mamlakatlardan kelgan ishtirokchilarga minnatdorlik bildirib, mamlakatimiz uchun



Hakim Yo'ldoshev olgan suratlar.

eng muhim mavzulardan biri — millat ta'lim-tarbiyasi masalasini muhokama qilish va O'zbekistonda jadidlar boshlagan ishlarni davom ettirish vaqti allaqachon yetib kelganini ta'kidladi.

— Bu yil O'zbekistonga bir necha bor keldim, — dedi Michigan universiteti faxriy professori, jadidshunos olim Temur Xo'ja o'g'li. — Oxirgi marta Sharqshunoslik institutidagi doktorlik dissertatsiyasi himoyasida qatnashish uchun kelgandim. Bu safar “Jadidlar: milliy o'zlik, istiqol va davlatchilik g'oyalari” mavzusidagi konferensiyada ilmiy izlanishlarini taqdim etish va tadqiqotchilarning jadid bobolarimiz borasidagi e'tiborga molik mulohazalaridan bahramand bo'lish uchun keldim. Bu juda katta xalqaro qurultoy. Albatta, bu O'zbekiston Prezidentining jadid bobolarimiz qilgan ishlarni o'rganish va hayotga tatbiq etish siyosatini yuritayotgani bilan bevosita bog'liq.

Ta'kidlanganidek, jadidlar Markaziy Osiyoda Uchinchi Uyg'onish poydevoriga birinchi g'ishtni qo'ygan edi. Chunki butun turkiy millatning taraqqiy etishida aynan jadidlarning g'oyalari muhim ahamiyatga ega.

— Men Turkiyadan keldim, — dedi tadqiqotchi Ahmed Biyan Erjulasun. — Ma'ruzamning mavzusi “Jadidchilik harakati va Turkiya”. Jadidlar dunyoni ko'rmoq istadi. Buxoro, Samarqanddan chiqib, Qirim, Moskva va Istanbulga qadar ketdi. Istanbulda bu harakat a'zolarining faoliyati ijtimoiy hayotimizda kuzatildi va 1910-yilda gazetalarda ularning faoliyati haqida xabarlar bo'y ko'rsatdi. 1920-yilda esa Mustafa Kamol Buxoroga Ibrohim Subhiy degan odamni yuboradi. Mustafa Kamolning tarixiy qarashlari aks etgan kitoblarini jadidchilar hozirlagan. Ularni qozonlik jadidchi Ismoil Gaspirali oilasining kuyovi Yusufak Chura tayyorlaydi. O'z vaqtida bu kitoblar jadidchilik harakatini o'rganishda turk o'quvchilariga dastak bo'ldi. Keyinchalik ma'rifatparvar jadidchi Munavvarqorin talabasi Ibrohim Yorqinning 1960-1970-yillarda chop etilgan yozma manbalaridan ma'lumotlar o'rgandik. Shoir Cho'lponning “Yig'lagan menman” she'rini ham ilk da'fa shu majmuadan o'qidik. Jadidchilik harakati hozir AQSH, Germaniya va boshqa mamlakatlarda ham o'rganilayotgani e'tiborga molik. Aytish lozimki, bu harakat butun turkiy

zaminning birlashuvi azaliy ekanini ko'rsatadi.

— Faxr bilan aytib o'tishimiz mumkinki, atoqli ma'rifatparvarlarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanmoqda, — deydi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi rahbari Baxtiyor Hasanov. — Ularning aziz nomlari bilan ataladigan yodgorlik majmualari, ta'lim muassasalari, muzeylar, bog' va xiyobonlar barpo etilmoqda. O'zbekiston Oliy sudi mustabid tuzum qatag'oniga uchragan 1030 dan ziyod vatandoshimizni oqlagan tarixiy adolati tiklash yo'lidagi yangi qadam bo'ldi. Yurtimizda har yili avgust oyini “Qatag'on qurbonlarini yod etish oyi” sifatida o'tkazish, fidoyi vatandoshlarimiz, ularning avlodlari yashagan va yashayotgan xonadonlarga yodgorlik lavhalari o'rnatish, vorislari hamda yaqinlariga hurmat-e'tibor ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Ayni paytda yurtimiz mahallalari idoralarida “Qatag'on qurbonlari xotirasi burchaklari” va “Mahalla xotira kitoblari”ni tashkil etish, har yili kamida 100 nafar qatag'on qurboni hamda jadid bobolarimiz hayoti va faoliyatini aks ettiradigan to'plam tayyorlash rejalashtirilgan. Ushbu muhim mavzuda arxiv hujjatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ilmiy tadqiqot ishlari uchun maqsadli grantlar e'lon qilish, yangi badiiy va publitsistik asarlar yaratish, xorijiy ilm-fan markazlari, fondlar va muzeylar, kutubxonalar bilan hamkorlikni rivojlantirish choralarini ko'rilayotgani ham aytib o'tildi.

— Tojikistonda ham O'zbekistonda

yil mart oyida mendan jadid kim, deb so'radilar. Kim gazeta o'qisa, tugmali qora kiyim va xorij poyabzalidan kiya, haftada bir Toshkent yoki Samarqandga borib kelsa, o'sha odam jadid, deb javob berdim. Afsuski, ikki hafta ichida shunday odamlarning bir yarim ming nafari qatl qilindi”.

Tadqiqotchi olimlar munozara jaryonida jadidlar haqidagi hamma ma'lumotlar ham haqiqatga yaqin emasligini, shu bois, ularni o'rganayotganda nihoyatda hushyorlik va zukkolik bilan yondashish zarurligini aytib o'tdi. Zero, arxiv hujjatlarida hamon oqlanmay kelayotgan bobolarimiz nomlari anchagina. Xo'sh,



JADID BOBOLARIMIZ XALQLARIMIZNI JAHOLAT VA QOLOQLIKDAN OLIB CHIQUV, ULARNI G'AFLET BOTQOQ'IDAN QUTQARISHNING ASOSIY YO'LI BILIM VA MA'RIFATDA, DUNYOVIY TARAQQIYOTNI EGALLASHDA, DEB BILDI. ULAR ANA SHU EZGU MAQSAD YO'LIDA FIDOYLILIK KO'RSATIB, YANGI USUL MAKTABLARI, TEATR VA KUTUBXONALAR, NASHRIYOTLAR OCHDI. JAMIYAT A'ZOLARINING DUNYOQARASHI VA TURMUSH TARZINI O'ZGARTIRISH MAQSADIDA GAZETA VA JURNALLAR NASHR ETDI. YOSHLARNI ILG'OR DAVLATLARGA O'QISHGA YUBORDI.

bo'layotgan o'zgarishlarga katta qiziqish bilan qarashadi, — deydi Panjikent shahridagi Tojikiston pedagogika instituti prorektori, tarix fanlari doktori, professor Shodmon Vohidov. — Xalqlarimiz tarixiy voqe'liklarni birgalikda boshdan kechirgan. Azaldan yonma-yon yashab ijod qilgan, birga kurashgan, quvongan. Bugun ilmiy tahlil jarayonida Ibrohimbek haqida gap bo'ldi. Keyingi yillarda Janubiy Tojikistonda — Afg'oniston chegarasida jang olib borgan qo'rboshilar hayotiga oid ko'plab tadqiqotlar qilindi. Meni hamisha Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi qiziqtirib kelgan. Keyingi paytlarda uning asarlari haqida ko'plab maqolalar e'lon qilinayotgani, kitoblar chop etilayotganini ko'rib quvonaman. Bundoq olib qarasa, biz ham jadidimiz, ya'ni neojadidimiz. Ular o'z g'oyalari uchun jonini tikkan, kurashgan, biz esa o'sha kurashlarning nazariy asoslarini tiklab, yosh avlod qalbiga olib kirishga harakat qilamiz. Izlanishlarim asnosida Sadriddin Ayniy yozgan mana bu so'zlarni o'qib titrab ketdim: “1917-

bugungi kun olimlari arxiv hujjatlarini o'rganishda qanday muammolarga duch kelmoqda?”

Ushbu savolimizga O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti bo'lim boshlig'i Mashhura Darmonova bunday javob berdi:

— Biz “jadidlar.uz” elektron platformasini yaratish borasida ishladik. Shu kungacha 230 nafardan ortiq yangi jadid ma'rifatparvarlari aniqladik. Endi Abdurahob Ibodiy, Fayzulla Usmonov, Mo'yinjon Aminjonov, Shokirjon Rahimiy, Otavli Xo'jayev, Muhammad Burhonov kabi millatparvar yurtdoshlarimiz nomlari tarix sahifalariga yoziladigan bo'ldi. Ularning barchasi ham ijod qilmagan bo'lishi mumkin. Lekin siyosiy chiqishlari, zamonaviy qarashlari va dadil harakatlari bilan Vatanimiz ozodligi uchun kurashgan. Mana shu jaryonda muammolarga duch keldik. Afsuski, ko'plab arxivlarda hali bu hujjatlar maxfiylik doirasidan chiqarilmagani aytiladi.

1865-yildan to shu kungacha bo'lgan qatag'on qurbonlari haqida xotira kitobini yaratish ustida tadqiqot o'tkazdik.

“BUYUK MA'RIFATPARVAR BOBOLARIMIZ TOMONIDAN OLG'A SURILGAN G'OYAVIY-SIYOSIY, IJTIMOIY-MA'RIFIY VA HUQUQIY-AXLOQIY QARASHLAR, TURLI MILLAT VA ELATLAR O'RTASIDA BAG'RIKENGLIK VA HAMJIHATLIK TAMOYILLARINI QAROR TOPTIRISH, MILLIY MANFAATLARNI HIMOYA QILISHGA QARATILGAN INTILISHLAR AYNI GLOBAL DUNYODA ULG'AYAYOTGAN HOZIRGI AVLOD UCHUN CHINAKAM IBRAT NAMUNASIDIR. ULARNING HAYOTI VA JASORATI BUGUNGI TINCH VA OSOYISHTA KUNLARGA OSONLIK BILAN ERISHILMAGANINI ESLATIB, MILLIY ISTIQLOLIMIZNI, JONAJON VATANIMIZNI KO'Z QORACHIG'IDAY ASRASHGA DOIMO DA'VAT ETIB TURADI.

Davr va zamon mezonlari o'zgarishi bilan oqlangan bo'lsa-da, huquqiy jihatdan oqlanmagan, hujjatlar to'g'rilanmay maxfiyigicha qolib ketgan ko'plab yurtdoshlarimiz borligi bizni tashvishga soldi. Shu bois, arxiv xodimlaridan zamonga mos fikrlab, hushyor faoliyat yuritishni so'ra-

Haqiqatan, buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihtlik tamoyillarini qaror toptirish, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar ayni global dunyoda ulg'ayayotgan hozirgi avlod uchun chinakam ibrat namunasi. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi.

Bu kabi mulohazalar bir qancha ma'ruzalarda ta'sirli yoritib berildi.

— Ilmiy anjuman ahliga yuzlanib, faxr bilan aytmoqchiman, men uch buyuk siymo — Fayzulla Xo'ja, Usmon Xo'ja, Atoulo Xo'jaga taalluqli oilada dunyoga kelganman, — deydi buxorolik olim Inoyatullo Sulaymonov. — Uzoq yillar “xalq dushmani” degan tamg'ani olib yurgan insonlarning biriman. Har safar Toshkentga kelganimda bobolarim qabrini ziyorat qilish istagida qo'limga gul bilan yig'lab-yig'lab Bo'zsuvi kanal bo'ylariga boraman. Ularning qachon va qayerda otilgan-yu ko'milganini hozirgacha aniqlay olganim yo'q. Nihoyat Fayzulla Xo'jayev otilgan va ko'milgan joyni borib ko'rish menga nasib etdi. Moskva-da Kommunarika degan joydagi qabristonga bordim. O'sha joyda otilgan 6600 kishining nomi yozib qo'yilgan. Ana shu ro'yxatda Fayzulla Xo'jayev nomi borligini ko'rib, cheksiz quvondim va yig'lab-yig'lab duo o'qib, ziyorat qilib qaytdim. Prezidentimiz 2016-yilda Buxoroga tashrif buyurganida “Biz Fayzulla Xo'jayev va uning safdoshlari oldida qarzdormiz!” degan edi. Shundan so'ng men bor salohiyatimni ishga solib, jadid bobolarim haqida uchta kitobni chop ettirdim. Ushbu kitoblarni Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyiga taqdim etaman.

Xalqaro konferensiyaga o'z ishini yakunladi. Anjuman Markaziy Osiyo mintaqasidagi ko'hna tarix qo'riqida yong'an ozodlik gulxanlari o'z qahramonlarini yosh avlod ko'z o'ngida, qalbidagi tirlitirgan olgani, yuksak ilmiy loyihalarni o'rtaga tashlagani bilan ishtirokchilar ko'nglini ravshan qildi. Dam ko'zimizga yosh oldirib, dam quvontirgan ushbu nafuzli anjumanda yuzaga kelgan samimiy muhit va birdamlik shu'lalari Uchinchi Uyg'onishning yorqin xotiralari sifatida tarix sahifalariga yoziladi.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon aytganidek: “Ey ko'hna Turon, arslonlar o'lakasi! Uyg'onish, birlashish onlari muborak bo'lsin!”

Muxtasar TOJIMAMATOVA, “Yangi O'zbekiston” muxbiri



TAHLIL VA TAQQOS

INFLYATSION KUTILMALAR VA MONETAR OMILLAR

2024-yilgi davlat budgetining ehtimoliy xatarlari

Mutaxassislar fikricha, dunyoning aksar qismi, jumladan, O'zbekistonda ham inflyatsiya darajasi odam yoki oilaning doimiy ravishda sotib oladigan mahsulotlari, tovarlari va xizmatlari to'plamiga nisbatan aniqlanadi. U qiymatbaho tovarlar bilan emas, balki birlamchi kundalik mahsulotlar, masalan, turli xizmatlar, non, sabzavot, o'simlik yog'i, tuxum, go'sht, guruch kabi oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlar bilan o'chanadi. Ularning narxi oyma-oy o'zgarib turadi. Bunday o'zgarish ko'rsatkichiga qarab inflyatsiya darajasi aniqlab boriladi.

Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra, mamlakatimizda joriy yil noyabr oyida inflyatsiya 1,1 foiz darajasida bo'ldi. Bu kamida so'ngi 7 yildagi minimal ko'rsatkich hisoblanadi (2022-yil noyabrda — 1,34, 2021-yilning shu davrida — 1,22, 2020-yil — 1,53, 2019-yil — 1,73 foiz).

Yanvar-noyabr oylarida inflyatsiya 7,43 foizgacha pasaydi (besh yil ichidagi minimum). Yillik inflyatsiya (o'tgan yilning noyabr oyidagidan) 8,76 foizga tushdi. Bu 2016-yil avgustidan buyon eng past ko'rsatkich (8,6 foiz). Yil davomida oziq-ovqat mahsulotlari o'rtacha 10,1 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari 7,5 foiz, xizmatlar 8,3 foiz qiymatladi. Alohida mahsulotlar kesimida noyabr oyida tuxum narxi 2,9 foiz (oktyabrda +10,5 foiz edi), shakar 2 foiz, sut 0,2 foiz oshishda davom etdi. Guruch va guluch oqshog'i 0,6 foiz, bug'doy uni 0,8 foiz, mor go'shti 0,2 foiz, kungaboqar yog'i 0,5 foiz arzonlashdi.

Sabzavot va mevalar orasida noyabr oyida oktyabrda nisbatan eng ko'p bodring (81,8 foiz), pomidor (69,7 foiz), anor (63,3 foiz), tarvuz (35 foiz), baqalajon (30,8 foiz), bulg'or qalampir (27,5 foiz), banan (1,8 foiz) qiymatlagan. Kartoshka 3 foiz, piyoz 7,1 foiz, limon 12,8 foiz, karam 19,8 foiz, sabzi 25,7 foiz arzonlashgan.

Tayyor taomlar 1,3-6,3 foiz, oshxonalaridagi taomlar 1,2-5,9 foiz, tepishar taomlar tayyorlanadigan oshxonalaridagi taomlar 0,6-4,6 foiz oraliqida qiymatlashdi.

Aholining narx kutilmalari sentyabr oyida o'rtacha 13,5 foizni tashkil etgandi. Oktyabrda ko'rsatkich 0,2 foiz bandga ortgan. Markaziy bank so'rovnomasida ishtirok etgan 2950 respondentning aksariyati kelgusi bir yil ichida narxlar oshishiga, asosan, valyuta kursi o'zgarishi (59 foiz), yoqilg'i va energiya qiymatlashishi (49 foiz), kommunal xizmatlar narxi (36 foiz) oshishi ta'sir qilishini kutmoqda. 2022-yilda yurtimizda inflyatsiya darajasi 12,3 foizni tashkil etdi. Barcha iqtisodiy mexanizmlarni qo'llab, joriy yilda bu ko'rsatkichni 10 foizdan pastga tushirish maqsad qilingan.



Kuttirayotgan targetlash va moliyaviy barqarorlik

Mamlakatimizda inflyatsiyani jilovlash va pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar Prezidentimiz topshirig'i bilan 2017-yil sentabrda boshlangan edi. Ikki yillik tayyorgarlik jarayonidan so'ng davlatimiz rahbarining 2019-yil 18-noyabrda "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, Markaziy bank zimmasiga 2020-yil 1-yanvardan boshlab pul-kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma-bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o'tkazishni ta'minlash vazifasi yuklatildi.

Toshkent moliya instituti huzuridagi Moliya-bank xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tarmoqlararo instituti direktori, dotsent Zamir Xolmahmadov qayd etishicha, inflyatsion targetlash davlat organlari tomonidan mamlakatda inflyatsiya darajasini nazorat qilish maqsadida amalga oshiriladigan monetar choralar kompleksi hisoblanadi. Buning uchun o'rta muddatli makroiqtisodiy prognoz, keyin esa undan chetga chiqish kuzatilsa, iqtisodiyotdagi optimal holatga qaytish imkonini beruvchi chora-tadbirlar belgilanishi kerak.

Markaziy bank 2020-yil boshidan inflyatsion targetlash rejimiga faol o'tishni boshladi va doimiy maqsadli target sifatida 2023-yilda inflyatsiyaning 5 foizli darajasiga erishish vazifasini belgiladi. 2022-yil 22-iyulda esa reguliyator 5 foizli target maqsadiga erishish muddatini 2024-yil oxirigacha uzaytirdi.

Markaziy bank raisi Mamarizo Nurmurotov shu yil 15-noyabr kuni Qozog'iston moliyachilari kongressida so'zlagan nutqida bugungi inflyatsion jarayonda kuchli barqarorlik va bo'ysunmaslik kuzatilyotganini e'tirof etar ekan, "O'zbekiston tajribasidan kelib chiqib aytamanki, oktyabr oyi oxiriga kelib, biz 9 foizli yillik inflyatsiya darajasiga erishdik va bu prognozlarimiz doirasiga to'g'ri keladi. Ayni paytda

ta'kidlab o'tishim kerakki, bazaviy inflyatsiya darajasi hali ham umumiy inflyatsiyaning qariyb 0,6 foiz punkt yuqori shakllanmoqda", dedi. Bu O'zbekiston Markaziy banki operatsion vositalardan foydalanib, ham biznes, ham aholining inflyatsion kutilmalarini pasaytirishga erishishi kerakligini ko'rsatayotganidan dalolat beradi.

"Shu sababli biz inflyatsiya va pul bozoriga nisbatan yuqori marja foiziga qaramay, joriy yilning mart oyidan buyon stavkani ancha cheklovchi — 14 foiz darajada ushlab turibmiz, — dedi M.Nurmurotov. — Yuqori noaniqlik va o'zgaruvchanlik davrida pul-kredit siyosatining o'zi ham noaniqlik manbasiga aylanmasligi, har bir qadamimiz atroflicha o'rganilgan, signallar aniq va tushunarli bo'lishi kerak. Fikrimizcha, bugungi kunda narxlar barqarorligi bo'yicha asosiy sinov, bir tomondan, ichki talaklarning ayrim komponentlari qolqolig'i bo'lsa, ikkinchi tomondan, byudjet siyosati bilan kuchaytirilishi davom etayotgan va hozir valyuta bozorida bosim yaratib, import orqali qondirilayotgan ichki talabning o'sishi hisoblanadi".

Markaziy bank raisi iqtisodiy faollik kechiktirilgan talabni to'liq qondirish uchun



zarur bo'lgan taklifni yaratmaydigan segmentlarda jamlangan sharoitda reguliyatorning vazifalari haqida ham o'z nuqtayi nazarini bildirdi. Uning fikricha, turli shakllarda — miqdoriy yumshatish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini subsidiyalash va faollikni tiklash kabi ko'rinishli talab amalga oshirilgan keng ko'lami fiskal rag'batlantirishdan so'ng mintaqaning barcha ishtirokchilari iqtisodiy faolliq tez daromad keltiradigan segmentlarga jamlandi.

"Bu — qurilish sanoati va xizmat ko'rsatish sohasi. Ular, shubhasiz, kechiktirilgan talabni har tarafflama qondirish uchun zarur bo'lgan taklifni yaratmaydi va shuni ta'kidlashim kerakki, bizda, xususan, uzoq muddatli istiqbolida iqtisodiyotning ishlab chiqarish quvvatini kengaytiradigan va pirovardida iste'mol talabini qondirishi lozim bo'lgan sanoat tarmoqlari o'sishi talab omillarining o'sish sur'atlaridan orqada qolmoqda. Bunday sharoitda Markaziy bank nima qilishi mumkin? Bu yerda biz faqat makroiqtisodiy o'sish uchun sharoit yaratishimiz mumkin — bu faqat inflyatsiyani prognoz qilingan ko'rsatkichlar doirasida ushlab turishdir".

Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari

Markaziy bankning 26-oktabr kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida pul-kredit siyosatining 2024-yil va 2025-2026-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari konseptual jihatdan ma'qullandi.

Unda makroiqtisodiy rivojlanishning barcha ssenariylarida Markaziy bankning asosiy maqsadi narxlar va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratiladi. Kelgusi yillarda tashqi iqtisodiy sharoitlarda joriy vaziyatning keskin o'zgarishsiz rivojlanishi va tarkibiy islohotlarning faol davom ettirilishi asosiy shartlari etib belgilangan bo'lsa, noaniqliklar yanada kuchayishi va tashqi sharoitlarda xatarli shoklar yuzaga kelishi muqobil senariy shartlari sifatida qayd etildi.

Asosiy ssenariyni ishlab chiqishda keyingi yillarda makroiqtisodiy to'g'rilanishlarning amalga oshirilishi, ya'ni energiya, transport hamda qishloq va suv xo'jaligidagi tarkibiy islohotlarning faol bosqichga ko'chishi va ayrimlarning mantiqiy yakuniga yetkazilishi, fiskal konsolidatsiya boshlanib, umumiy fiskal defitsit hajmi 2023-yilgi



Bu, o'z navbatida, inflyatsiyani target ko'rsatkichiga qadar samarali pasaytirish uchun uning monetar omillari ta'sirini kamaytirish bilan birga, yalpi taklifni oshirishga qaratilgan choralarini yanada kuchaytirish lozimligini anglatadi.

Makroiqtisodiy rivojlanishning asosiy ssenariy doirasida 2024-yilda inflyatsiya darajasi 8-9 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Buni ta'minlash uchun pul-kredit sharoiti kelgusi yilda ham nisbatan qat'iy fazada saqlab qolinadi.

Ayni paytda 2024-yilda tartibga solinadigan narxlarining to'g'rilanish darajasidan kelib chiqib, inflyatsiya prognozi qayta yangilanishi va mos ravishda pul-kredit sharoitlariga o'zgartirish kiritilishi mumkin. Kutilayotgan o'zgarishlar inflyatsion kutilmalarga keskin ta'sir ko'rsatgan taqdirda pul-kredit sharoitlari o'zgartiriladi hamda jengamoatchi bilan aloqalar yanada faollashtirilib, har bir chora tushuntirib boriladi.

Pul-kredit siyosati ta'sirchanligini oshirishda bank tizimida dollarlashuv darajasini pasaytirish, ixtiyozli kreditlash amaliyotini qisqartirish va bozor tamoyillari asosida shakllanuvchi foiz stavkalariga o'tish borasida choralar davom ettiriladi.

Asosiy ssenariy doirasida 2024-yilda yalpi ichki mahsulotning real o'sish prognozi 5-5,7 foiz atrofida bo'lishi, 2025-yilda 5-6 foiz va 2026-yilda 5,5-6,5 foiz atrofida shakllanishi prognoz qilinmoqda. Bunda xususiy sektorning investitsion va ishlab chiqarish salohiyati oshib borishi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar hamda eksportning yuqori sur'at kasb etishi iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi omil bo'lishi kutilmoqda.

Muqobil ssenariy doirasida, asosiydan farqli o'laroq, tashqi sharoitlarning birmuncha noqulay shakllanishi ichki narxlarga qo'shimcha bosim yaratishini ko'zda tutgan holda 2024-yilda inflyatsiya darajasi 9-10 foiz atrofida bo'lishi inobatga olingan.

Bunda doimiy targetga erishish davri yanada uzoqroq vaqtga kechikib, 2025-yilda inflyatsiya 7-8 foiz atrofida bo'lishi va 2026-yil yakuniga kelib, 5 foizgacha pasayishi prognoz qilinmoqda. Mazkur ssenariy doirasida iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlovchi asosiy omil fiskal rag'batlantirishlar bo'ladi. Bunda o'rta muddatli istiqbolida YAIM real o'sishi bazaviy ssenariyda keltirilgan prognozlariga nisbatan 1,5-2 foiz bandga pastroq bo'lishi mumkin.

Muqobil ssenariy shartlari yuzaga kelganda pul-kredit sharoitlarini yanada qat'iy lashtirish choralarini ko'riladi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi e'lon qilgan "Budjetnoma"da 2024-yil davlat budgeti prognozlarida kuzatilishi mumkin bo'lgan xatarlarga ham e'tibor qaratilgan.

Geosiyosiy ziddiyatlar kuchayotgani bozordagi narxlar o'sishi va tovarlar taqchilligiga olib kelib, natijada mamlakatda inflyatsiya bosimi kuchayishi mumkinligi asosiy xatar sifatida ko'rilmoqda.

Xalqaro valyuta jamg'armasi prognozlariga ko'ra, dunyo bo'ylab markaziy banklar tomonidan inflyatsiya oshishiga qarshi choralar ko'rilishi natijasida global inflyatsiya darajasi 2022-yilgi o'rtacha 8,7 foizdan 2023-yilda 6,9 foizgacha va 2024-yilda 5,8 foizgacha tushishi, biroq pandemiya davridan (2017-2019-yillardagi 3,5 foiz) yuqori darajada bo'lishi kutilmoqda. Global inflyatsiya darajasi tushishiga asosiy omil sifatida jahon bozorida oziq-ovqat va boshqa turdagi tovarlar narxlarida pasayish kuzatilyotgani ko'rsatilgan.

Yuqoridagi holatlar natijasida O'zbekistonda inflyatsiya darajasi 2022-yildagi 12,3 foizdan 2023-yilda 9 foizgacha tushishi kutilmoqda. Global miqyosda oziq-ovqat narxi keskin o'sishi aholining zaif qatlamlariga salbiy ta'sir qilib, ularni oziq-ovqat narxlarining yuqoridagidan himoya qilish zaruratini keltirib chiqarishi mumkin va bu, o'z navbatida, budjetning ijtimoiy xarajatlari oshishiga olib keladi.

"Bundan tashqari, inflyatsion bosim ostida ish haqi va pensiya to'lovlarining qo'shimcha indeksatsiyasi amalga oshirilishi, milliy valyutaning asosiy jahon valyutalariga nisbatan qadrsizlanishi, mehnat migrantlarining omma-viy mamlakatga qaytishi va O'zbekistonda doimiy daromad manbaiga ega bo'lolmasligi oqibatida davlat budgetidan nafaqa oluvchi oilalar soni ortishi kabi omillar ta'sirida budget xarajatlari oshishi kutiladi", deyildi "Budjetnoma"da.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan qarz (kredit) mablag'lari bo'yicha foiz stavkasi o'sishi tashqi qarz mablag'ini jalb qilish jozibadorligini pasaytirishi mumkin. Ushbu global trend va tashqi omillar natijasida davlat budgeti prognozlarida kuzatilishi mumkin bo'lgan risklar quyidagicha ko'rinishi olishi mumkin:

— ish haqi miqdori qo'shimcha ravishda 1 foiz oshirilishi yiliga 1,3 trillion so'm atrofida, pensiya miqdori 1 foiz oshirilishi esa 600 milliard so'm miqdorida qo'shimcha xarajalar talab etadi;

— so'm almashinuv kursining 100 so'mga qadrsizlanishi yillik davlat budgeti xarajatlari 400 milliard so'm oshishiga olib keladi;

— oltin narxi prognozda ko'zda tutilgan 1 unsiya uchun 1800 dollardan 100 dollar pasayishi 4,5 trillion so'm, mis narxi prognozda ko'zda tutilgan 1 tonnas uchun 7800 dollardan 500 dollar pasayishi 940 milliard so'm hamda energiya resurslari tariflari oshirilmay qolishi 1,5 trillion so'm budget daromadlari kamayishiga olib kelishi mumkin.

Qayd etish joiz, 2024-yil budget qonuni loyihasi ga ko'ra, uning daromadlari 270,3 trillion so'mni, xarajatlari esa 279,6 trillion so'mni tashkil qilishi kutilmoqda. Davlat budgeti loyihasi 4 foizli defitsit bilan ishlab chiqilgan. Shuningdek, kelgusi yilda ish haqi, pensiya va stipendiyalar miqdorini oshirish rejalashtirilgan.

Abdurauf QORJOVOV sharhi

HUDUDLAR HAYOTI

Nazari — Boysun tumanining olis tog' qishloqlaridan biri. Purviqor Boysun tog'i etagida joylashgan qishloq betakror chiroyi, qalin archazorlari bilan havasni keltiradi. Iqlimi mo'tadil, ayni yoz chillasida to'rt fasl holatini ko'rish mumkin. Qoyatoshlar ustidagi qor to kelgusi qishgacha erimaydi. Kuzda ob-havo g'uborli bo'lsa-da, olma, behi va boshqa mevalar g'arq pishib, ekilganiga 30-40 yil bo'lgan yong'oq mevalari "meni terib ol" degandek, po'st tashlaydi. Kuzda tez-tez yomg'ir yoqqani uchun o't-o'lan qurib qolmaydi, yam-yashil bo'lib bahardagidek yashnab turadi, turfa gullar esa ko'klamdagidek kishini o'ziga shaydo qiladi. Yozi iliq, quyosh charaqib tursa-da, quyug' parqur bulutlar to'sgani uchun mayin shabada esib, salqindan et junjikadi.

Tog' qishloqlaridagi ayolu erkakning rangi toza, erkaklar alp kelbati, bardam-baquvvat. Tong salarda 92 yoshli Bo'ta Begaliyevni xarsang toshlar etagida uchratdik. Hamon ildam va bardam boboni suhbatga tortdik. Ayoli Safargul Karimova 87 ga kirgan. Er-u xotining aytishicha, umrida hech qursa bir bor shifoxonaga bormagan. Biror xastalik yuzasi-

TOG' BAG'RIDAGI OBOD QISHLOQ

dan do'xtirlarga murojaat qilmagan. Ayrimlar bosh og'rig'ini qoldirish uchun foydalanadigan dorini ham og'ziga olib ko'rmanigini bobo zavq bilan hikoya qiladi. Bobo uzoq umr ko'rish sirini toza havo, tog'da sokin yashash, doimiy harakat va mehnatda, kimyosiz yetishtirilgan meva-cheva, sabzavot, ko'katlar, sof sut-qatiq iste'mol qilishda, deb izohlaydi. Nazari qishlog'i yaqin yillargacha Qo'rg'oncha davlat xo'jaligi tarkibida bo'lgan. Hozir "Xo'jaidod" mahalla fuqarolar yig'iniga qarashli katta qishloq. Mahalla bo'ysunuvdagi Nazari, Gulibog', Shohtut, Qo'rg'oncha qishloqlaridagi jami 315 oila 1305 kishi yashaydi.

Bu yerliklar, asosan, chorvachilik, bog'dorchilik hamda lalmi dehqonchilik bilan mashg'ul. Ekin ekiladigan dalalarda 8 ta fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatyapti. Ular shartli sug'oriladigan maydonlarda olma, nok, yong'oq kabi mevali daraxtlar parvarishlash bilan birga, har biri o'rtacha 30-35 gektar dalada urug'lik uchun beda ham o'stiradi. Aholi biror muammoga duch kelsa, avvalo, mahallaga boradi, oqsoqol bilan maslahatlashadi. Mahalla oqsoqoli Abdushohim Muhammadiev yurtparvar, elining suyanchi, jonkuyar inson. Kasbi o'qituvchi bo'lgan, maoshi tayin, bo'sh paytda qo'y-echkisini boqib, olmazlarda mehnat qilib, oilasi bilan farovon yashab yurgan Abdushohim aksai oqsoqol qo'yarda-qo'yimay mahalla raisligiga saylangandi. 2003-yildan to 2016-yilgacha oqsoqollikni a'lo darajada epladi, qishloqdoshlari turmushini farovonlashtirishga imkon qadar his-



sa qo'shdi. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj odamlardan yordamini ayamadi. Shundan so'ng bir muddat Nazari qishlog'idagi 44-umumta'lim maktabida o'qituvchilik qildi. Oradan uch yil o'tib, qishloq odamlari yana "Abdushohim Muhammadiev mahalla raisi bo'lsin", degan talab bilan chiqdi. Noliq, qishloqdoshlarining yuzidan o'tolmadi. 2019-yildan shu yil may oyigacha raislik qilib, mahalla hududini obodonlashtirish va tog'liklar muammosini hal etish maqsadida bir oyog'i qishloqda, bir oyog'i tuman markazida bo'ldi. Xalq uchun, ayniqsa, tog' sharoitida eng muhimi — yo'lining ravonligi. Chunki yo'l

epaqaga kelmasa, tuman markazi va bozor-o'charga borib kelish uchun odamlar eshak va otida kunlab yo'l bosadi. Mahalla oqsoqoli Abdushohim Muhammadiev bu masalani kunora tuman rahbarlariga aytishdan charchamadi. Xalq deputatlari tuman kengashi sessiyalariga qatnashib, yo'l masalasini hal qilishni so'rayverdi. Taqirlatilavergan eshik kun kelib ochiladi deganlaridek, nihoyat, Xo'jaidod mahallasiga eltadigan yo'l ta'mirlanadigan bo'ldi. "Obod mahalla" dasturiga asosan, 2021-yili mahalla tarkibidagi qishloqlarga eltadigan 14,5 kilometr yo'lni joriy ta'mirlashga kirishildi. Puduratchi tashkilot



— Boysun tumani yo'lardan foydalanish unitar korxonasi jamoasi respublika budgetidan ajratilgan 1 milliard 723,6 million so'm evaziga Gumatak qishlog'i hududidan boshlanadigan tog' yo'li hamda Nazari qishlog'idagi Gulibog', Shohtut, Qo'rg'oncha, Nazari ko'chalarini tekislashtirish, ta'mirlash hamda qum-shag'al aralashmasi yotqizish ishlarini bajardi. Yo'sozlar yo'lni sifatlari ta'mirlashi, ishni chala tashlab ketmasligi uchun mahalla oqsoqoli Abdushohim aka oylab uyiga bormadi, ular bilan birga yashadi. Goh o'z mablag'i, goh mahalladoshlari himmat qilib bergan mablag' hisobiga issiq ovqat va choy tashkil etib, yo'sozlarga doimiy ko'makchi bo'ldi. Natijada uch oy deganda 14,5 kilometr yo'l texnika erkin yuradigan holatga keldi. Mahalla oqsoqoli Abdushohim Muhammadiev bog'dorchilik va chorvachilik sohasida ham qishloqdoshlariga ibrat. Bo'sh vaqtda qo'y-echki, qoramol boqadi. Bundan tashqari, tog' qiyaqliklaridan mashaqqat ila o'zlashtirgan bir gektardan ziyod maydondagi olmaning krimson, golden navlari ko'chalaridan 800 tup ekib, to'liq ko'kartirib olgan. Oxirgi yillarda oqsoqolning mo'jaz olmazoridan 15 tonnagacha hosil olinyapti. O'tgan yili oila a'zolari 80 million so'mga olma sotgan bo'lsa, qolgan qismini ehtiyojmandlarga ulashdi. Abdushohim

Muhammadiev hozir olmalarini uziyapti, hosil mo'lgidan xursand. Tog'liklarning kattayu kichigi ilm olishga, kitobxonlikka qiziqadi. Dengiz sathidan 1800 metr balandlikda hamda Boysun tumani markazidan ancha olisda joylashgan Xo'jaidod mahallasi tarkibidagi Qo'rg'oncha, Nazari, Alachopon va boshqa tog' qishloqlari xalqi orasida ilonga tashna, bilimdon, o'qib-izlanadigan insonlar juda ko'p. Tog'da voyaga yetib, katta shaharlarga borib, oliygohlarda tahsil olgan va ilmiy ishlar bilan shug'ullanib tanigan donishmand insonlar son-sanoqsiz. Tog'lik yoshlar ham ilm cho'qqilarini zabt etishi uchun 18 va 44-umumta'lim maktablarida shahardagidan qolishmaydigan sharoitlar muhayyo. Misol uchun, Nazari qishlog'ida joylashgan 44-maktabda 210 nafar o'g'il-qiz tahsil olyapti. 24 nafar tajribali o'qituvchi yoshlar ta'lim-tarbiyasiga mas'ul. Faqat shu maktabning o'zida 2 ta sinfonada 60 ta kompyuter to'plami bor, o'quvchilar axborot texnologiyalari sirlarini puxta o'zlashtirmoqda. Yurtimizning eng zo'ral g'o'shalaridan biri bo'lgan Boysun tumani tog' qishloqlaridagi odamlar shunday sokin, shunday farovon, bugunidan quvonib, ertasiga ishonib hayot kechirmoqda.

Usmonali NORMATOV, jurnalist

NUQTAYI NAZAR

MUHANDISLIK TA'LIMI

KO'P YILLIK MUAMMOLARDAN SAMARALI YECHIM SARI

Muhandislik jamiyat muammolariga xavfsiz yechim topish uchun zarur bo'lgan inshoot, uskuna, moslamalarni ta'mirlash, loyihalashtirish uchun ilmiy, matematik, iqtisodiy, ijtimoiy va amaliy bilimlar olish hamda qo'llash bilan bog'liq tizimlar majmuidir. Shu bois, muhandislik ta'limining sifati va samaradorligini ta'minlash muhim masala bo'lib qolmoqda.



Sardor DONAYEV,
Toshkent davlat texnika universiteti prorektori, fizika-matematika fanlari doktori, professor

nologiyalar yaratish va korxonalarini modernizatsiya qilishdagi ishtiroki susaygani bilan izohlanadi. Shu tufayli hozirgi sharoitda mutaxassislar tayyorlash sifati, talabalarining ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasi va yosh innovatorlarni tayyorlash ahamiyatini oshirish mushkul bo'lmoqda.

Im-fan, texnika va axborot texnologiyalari taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan turli yangiliklarni amaliyotga joriy etish orqali mahalliy muhandislik ta'limini nafaqat saqlab qolish, balki kuchaytirish zarur. Bu oliy ta'lim tizimini yangidan qurish, o'qitish jarayoni tubdan o'zgarishi bilan tavsiflanadi.

Hozir yangi ta'lim modellari paydo bo'lmoqda yoki eski modellar yangi tarkib bilan to'ldirilmoqda hamda rivojlantirilmoqda. Shu bilan birga, butun dunyoda muhandislik ta'limi sifatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki texnologiyalar, texnik tizimlar murakkablashadi. Ularning iqtisodiyot va umuman, jamiyat rivojidagi roli kuchayadi. Shu ma'noda, muhandislik ta'limini modernizatsiya qilish mamlakatning texnologik rivojlanishi, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq dolzarb masalalardan biridir. Zotan, mashinasozlik tarmoqlaridagi eng malakali va faol mutaxassislar boshqa sohalarga o'tib ketishi natijasida kadrlar tanqisligi yuzaga keldi. Yosh muhandislar eng yaxshi moddiy yordam, eng yaxshi istiqbol va obro'-e'tibor beradigan korxonaga va sohalarni tanladi.

Mamlakatimizda iqtisodiy ahvol sezilarli darajada yaxshilandi. Biroq muhandislik ta'limidagi vaziyat hali ham tashvishlanarli. Talabalarni birinchi kursga sifati qabul qilish muammosi kuchayib, keyinchalik oliy ta'lim muassasalarida o'qishda jiddiy, ba'zan yengib bo'lmaydigan qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Muhandislik ta'limidagi muammolar butun dunyoda katta tashvish tug'dirmoqda. UNESCO tashkiloti hisobotiga ko'ra, bu muammolar global xarakterga ega, dunyoning barcha mintaqasida bir xil darajada dolzarb.

So'nggi yillarda muhim ahamiyatga ega qator ilmiy nashrlar va ba'zi xalqaro forumlar materiallari muhandislik ta'limining hozirgi holati va uning rivojlanish tendensiyalarini baholash, bu to'g'rida to'liqroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Masalan, aerokosmik muhandislik ta'limidagi innovatsiyalar va modernizatsiya bilan bog'liq dolzarb muammolar Pekindagi Beyxan universitetida bo'lib o'tgan birinchi xalqaro forumda keng munozaralarga sabab bo'ldi.

Xitoyda "Iste'dodlarni tarbiyalash: universitet, professor, talaba" nomli xalqaro hamkorlik strategiyasi ishlab chiqilgan. Bunda xususiy ta'lim islohoti ko'zda tutilgan bo'lib, u ikkita kichik dastur doirasida amalga oshirildi: talabalar almashinuvi va yetakchi universitetlar bilan hamkorlikda o'qitish. Shu bilan birga, muhandislik fakultetlarining reytingni oshirishdagi roli yetarli emasligi dolzarb muammo, deb to-

ta'lim tizimini yaratishga qaratilgan. Ushbu tarmoqdagi sheriklar hamkorligi ijobiy tajriba ega.

Ingliz muhandislik maktabidagi yangi tendensiyalarning muhim xususiyati universitetda sanoat bilan integratsiyaga yo'naltirilgan o'quv jarayonini yo'lga qo'yish bilan bog'liq. Talabalar o'quv-muhandislik dasturlarini bajarish uchun sanoat korxonalariga joylashtiriladi. Muhandislik fakulteti talabalarini bilan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, amaliyot ularga kasbiy o'sish uchun muhim ahamiyatga ega muhandislik tajribasini beradi.

Yevropa universitetlari sanoat korxonalarini bilan hamkorlik qilish tajribasiga ega va shu asosda faoliyatini rivojlantiradi. Masalan, Chexiyada hamkorlikning bir nechta modeli qo'llaniladi. Xususan, Chexiya texnika universiteti ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sohasida



muhandislik ta'limi muammosi kuchayib, keyinchalik oliy ta'lim muassasalarida o'qishda jiddiy, ba'zan yengib bo'lmaydigan qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Muhandislik ta'limidagi muammolar butun dunyoda katta tashvish tug'dirmoqda. UNESCO tashkiloti hisobotiga ko'ra, bu muammolar global xarakterga ega, dunyoning barcha mintaqasida bir xil darajada dolzarb.

muhandislik ta'limi muammosi kuchayib, keyinchalik oliy ta'lim muassasalarida o'qishda jiddiy, ba'zan yengib bo'lmaydigan qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Muhandislik ta'limidagi muammolar butun dunyoda katta tashvish tug'dirmoqda. UNESCO tashkiloti hisobotiga ko'ra, bu muammolar global xarakterga ega, dunyoning barcha mintaqasida bir xil darajada dolzarb.

muhandislik ta'limi muammosi kuchayib, keyinchalik oliy ta'lim muassasalarida o'qishda jiddiy, ba'zan yengib bo'lmaydigan qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Muhandislik ta'limidagi muammolar butun dunyoda katta tashvish tug'dirmoqda. UNESCO tashkiloti hisobotiga ko'ra, bu muammolar global xarakterga ega, dunyoning barcha mintaqasida bir xil darajada dolzarb.

muhandislik ta'limi muammosi kuchayib, keyinchalik oliy ta'lim muassasalarida o'qishda jiddiy, ba'zan yengib bo'lmaydigan qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Muhandislik ta'limidagi muammolar butun dunyoda katta tashvish tug'dirmoqda. UNESCO tashkiloti hisobotiga ko'ra, bu muammolar global xarakterga ega, dunyoning barcha mintaqasida bir xil darajada dolzarb.

AQSHning Ayova shtati universiteti talabalar o'rtasida qiziq so'rovnomaga o'tkazdi. Birinchi kurs talabalaridan kelajagi uchun nimani — go'zallik, kuch, boylik, bilim, donolikdan qay birini tanlashi so'raldi. Ba'zilar kuch va boylikni tanladi. Ularning fikricha, agar insonda kuch va pul bo'lsa, o'zi xohlagan hamma narsaga ega bo'ladi. Talabalarning ushbu toifasi kelgusidagi biznesmenlardir. Boshqalari esa kelajak uchun bilim va donolikni tanladi. Agar sizda bilim va donolik bo'lsa, qolganini ke-ladi, deydi ular. Bu muhandisning falsafasidir.

XXI asrda sanoat talabalariga javob beradigan muhandislar tayyorlash muammosi yangi materiallardan konstruksiyalar ishlab chiqarish uchun matematika, fizika fanlari bo'yicha yuqori darajali bilimlarni egallash va texnologiyalarni yaratish bilan hal etiladi. Shuningdek, muhandis qit'alar bo'ylab internet orqali muloqot qilib, global tarmoqlarda ishlay olishi kerak. Talabalar bilan ishlash, sanoat bilan hamkorlik o'rnatish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Ushbu fazilatlarini shakllantirish uchun o'quv jarayoniga turli fanlar bo'yicha mutaxassislar jalb qilinadi. Ular yordami bilan talabalar jamoalarida konstruktiv va tadqiqotchilik muammolarini hal qilish jarayoni tashkil etiladi. Bunday darslarni o'tkazish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda. Loyihalarni amalga oshirish asosida jamoalarda eksperimental mashg'ulotlar o'tkaziladi. Birinchi yili barcha jamoa laboratoriya sinovlarida qatnashadi va amaliy loyihalar bajaradi. Yuqori kurslarda talabalar fanlararo bir yillik loyihani amalga oshiradi va milliy tanlovlarda qatnashadi. Buning uchun gibrilid elektr transport vositalari, avtomobil yonilg'i texnologiyalari, aqlli transport tizimi, gaz turbinasi materiallari va boshqa tadqiqot yo'nalishlari mos keladi.

Rossiya muhandislik ta'limi sanoatda mustahkam idizga va shakllanish davrida o'rnatilgan boy analarga ega. Ular yordami bilan mamlakatning ilg'or muhandislik maktablari chuqur inqiroz sharoitida ham ilmiy va ta'lim salohiyatini saqlab qoldi. Rossiyadagi sanoat korxonalar uzoq vaqtdan buyon muhandislar tayyorlashda universitetlarning faol hamkori bo'lib kelgan. Xususan, Moskva davlat texnika universiteti, Moskva fizika-texnika instituti, Moskva aviatsiya institutida sanoat korxo-

nalari bilan integratsiyalashgan tuzilmalar tashkil etilgan.

Muhandislik ta'limini rivojlantirish bo'yicha Toshkent davlat texnika universitetida ham muayyan ishlar qilinayapti. Fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularni ish bilan ta'minlash, ishlab chiqarish korxonalarini bilan aloqalarni kuchaytirish shular jumlasidan. Shuningdek, mamlakatimizdagi yirik ishlab chiqarish korxonalarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini, oliy ta'lim muassasalarini va boshqa tashkilotlarni 160 dan ortiq innovatsion korporativ hamkorlik shartnomasi imzolangan. 2022-yilda korxonalarining 830 dan ortiq ilmiy-texnologik muammosi bazasi tashkil qilinib, ular yechimiga qaratilgan 370 dan ortiq magistrlik, 80 dan ziyod doktorlik dissertatsiyasi tayyorlanmoqda.

Universitet olimlari korxonalarining yetakchi mutaxassislari bilan hamkorlikda talabalarini ishlab chiqarish hamda bitiruv-malakaviy amaliyotini tashkil etyapti. Talabalar amaliyot o'tash davrida korxonada qo'llanayotgan zamonaviy texnologiyalar va jihozlar bilan tanishmoqda.

Tahillarga ko'ra, mamlakatimizdagi texnikaga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarini uchun ishlab chiqarish bilan integratsiyani yanada rivojlantirish, yirik zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida o'qish jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi texnologiyalar va innovatsiyalarni jadal rivojlantirishda zamonaviy dunyo bilan hamohanglikni nazarda tutadi. Shu bois, O'zbekiston oliy ta'lim tizimining bu boradagi asosiy vazifalaridan biri muhandislik ta'limini rivojlantirish, ilmfan va texnologiyalarning ilg'or yo'nalishlari sohasidagi bilimlarni, shuningdek, jadal rivojlanayotgan dunyoda tizimli va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini egallagan mutaxassislarni maqsadli tayyorlashdir.

Prezidentimiz Murojaatnomada "...Kimyo sanoati, elektr texnikasi, transport va energetika sohasida nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan birga, alohida muhandislik maktablari tashkil qilinadi. Bu tizim bizda hozirgacha bo'lmagan. Londa aytganda, yangi zamon injenerlari tayyorlash tizimini yaratamiz", degan edi. Bu mamlakatimiz kelajagi bo'lgan iqtidorli yoshlar uchun muhandislik sohasini rivojlantirish borasida barcha imkoniyat yaratilgani hamda oliy ta'lim tizimidagi islohotlar o'z natijasini berishini kafolatlaydi.

ISLOHOTLAR SAMARASI

"YANGI O'ZBEKISTON" MASSIVI

bunyodkorlik va taraqqiyot timsoli

Boshlanishi 1-betda

Yangi shahar ulkan orzu-maqсадlar yo'lida qanot yozib, osmonga bo'yashayotgan tinchlik va baxt-saodat elchisi Humo qushini yodga soladi. Zamonaviy shaharsozlik an'analari asosida qad rostlayotgan yangi massivda aholi kundalik turmushi uchun muhim bo'lgan barcha infratuzilma tarmoqlari, dam olish maskanlari qurishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu yerda 7 va 25 qavatli binolarga hamohang ta'lim, tibbiyot, sport majmualari, bog' va xiyobon, hordiq maskanlari, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari barpo etish katta uyushqoqlik bilan olib borilmoqda. Bunyodkorlik ishlarida qudratli texnikalar, 50 dan ortiq pudratchi korxonalar, 4 mingdan ziyod quruvchi-yoshlar mehnat qilmoqda.

O'ziga xos me'moriy qiyofaga ega shaharcha loyihasi mamlakatimizda kamyob sanaladi, — deydi qurilish shtabi boshlig'i Kozimjon Anvarov. — Ekologik toza, yashil iqtisodiyotga asoslangan loyihalardan foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. Har bir uy energiyatejamlor. Shahar ob-havosini mo'tadillashtirish, hududni obihayot bilan ta'minlash maqsadida umumiy uzunligi 11 kilometr kanal qurilishi poyoniga yetdi. Mavjud

suv resurslaridan unumli foydalanish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik maqsadida ariqlar betonlashtirildi, aqlli sug'orish tizimlari joriy etildi. Sun'iy ko'l va zamonaviy favvoralar qurilishi nihoyasiga yetmoqda. Damko'l qishlog'idan 14,2 kilometr toza ichimlik suvi, 7,5 kilometr yuqori kuchlanishga ega elektr tarmoqlari tortildi. 11,2 kilometr yangi kanalizatsiya quvurlari ishga tushirildi. Istiqbolli rejalar dasturiga ko'ra, bu yerda 500 dan ortiq bolalar maydonchasi, 300 ta o'yingoh, 10 ta bog'cha va 6 ta maktab barpo etiladi. 50 gektar maydonda kichik sanoat zonasi ishga tushirilishi hisobiga 20 mingdan ortiq ish o'rni yaratiladi.

Yetmish gektarli "Yangi O'zbekiston" bog'ida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida bahor va kuz mavsumining o'zida 15 mingdan ortiq daraxt hamda gul ko'chatlari o'tqazildi. Xonadonlarni issiqlik tizimi bilan ta'minlash maqsadida 21 ming Mvt. quvvatga ega markazlashgan isitish qozoni qurilmoqda. Shu kunga qadar dastlabki 73 ta ko'p qavatli uy-joyni qurish yakunlanmoqda. 420 o'rinni 3 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 990 o'rinni 2 ta umumta'lim maktabi, 250 qatnov o'ringa ega markaziy poliklinika qurib bitkazildi.

— Uy-joylar mustahkam va sifatlil bo'lishini muntazam nazorat qilib boryapimiz, — deydi Farg'ona viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi bosh mutaxassisi Umidjon Uzoqov. — Avvalo, yerni kovlash, po'ydevorni mustahkam quyish, g'isht terish, issiq va sovuqdan himoya vositalari, energiyatejamlor jihozlar o'rnatish, zilzilabardoshlik bilan bog'liq jarayonlar e'tiborga olingan. Bundan tashqari, xavfsizlik choralariga amal qilish, ishchi-xizmatchilar malakasi va mahoratini oshirish, qurilishda ishlati-



ladigan yangi texnika va texnologiyalar borasida suhbat va ko'rgazmalar o'tkazib kelyapmiz.

Bunyodkorlik ishlarida farg'onaliklar bilan birga, xorijlik investorlar ham ishtirok etmoqda. Rossiyaning "Moneron" qurilish korxonasi tomonidan 70 xonadonli 9 qavatli uy-joy qurilmoqda. Kunchiqar yurt vakillari esa 3 gektar maydonda Yaponiya shaharchasi bunyod etadi.

— Birinchi bosqichda 140 xonadonga mo'ljallangan yetti qavatli uchta uy-joyni qurib bitkazdik, — deydi "Marg'ilon binokor ta'mir" MCHJ direktori Fazliddin Tojiboyev. — Korxonamizda beton plita va g'isht ishlab chiqarishni yo'lga qo'yganmiz. Bu uylarni tez va sifatlil, arzon bitka-

zishda o'ziga xos imkoniyatlar berdi. Kam ta'minlangan va boquvchisini yo'qotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun 10 dan ortiq zamonaviy uy-joy qurib, foydalanishga topshirdik.

Latofatxon Shokirova Qo'shtepa tumanidagi "Qamishtepa" mahalla fuqarolar yig'inida yashaydi. Bir nafar farzandi bilan turmushdan ajralgach, akasining xonadonida yashab kelardi. Endilikda bu oila hayotida ham yangi davr boshlandi. Unga imtiyozli tarzda bepul uy-joy berildi.

— Har kim o'z uyi — kichik vatani bo'lishini orzu qiladi. Bunday quvonchli,



sharoitlari bor. Mana shunday uylarda yashashni orzu qilardim, niyatimga yetdim. Yangi uy oilam uchun ko'plab imkoniyatlar yaratdi. Bizni ko'lab-quvvatlab, amaliy yordam bergan saxovatpeshalarga rahmat.

Yangi shaharchaga ko'chib kelgan aholi muhtasham uy-joylarda yaratilgan sharoitlardan juda mamnun. Uylar hovlisiga o'rnatilgan o'yin, sport-sog'lomlashtirish maydonchalari mahalla yoshlari bilan gavjum, fayzli.

— Ekoshaharcha yaqin hududda yashaganimiz bois, yangi shahar qurilishi jarayonini bilan bevosita tanishman, — deydi farg'onalik Dilnoza Rahmonova. — Turmush o'rtog'im harbiy xizmatni o'tab, nafaqaga chiqdi. Bizga istalgan hududdan uy-joy tanlab olish imkoniyati berilgandi. Hech ikkilanmasdan bu yerga

tutdik, — deya suhbatga qo'shildi Hojiakbar Erkinov. — Uy-joy olaman, degan har bir oilaga maqbul narxlarda uzoq muddatli kredit asosida berilayotgani ayni muddao. Hamma qulayliklar mujassam, chiroyli. Yashash hududimizga tutash maktab, bog'cha, tibbiy xizmat, savdo singari kundalik hayot uchun muhim bo'lgan tarmoqlar qurilib, ishga tushirilgan o'g'irimi yangil, uzog'imizni yaqin qilmoqda.

Ko'p qavatli uy-joy va boshqa ijtimoiy bino-inshootlar qurishda energiyatejamlor texnologiyalardan foydalanilyapti. Bu uylarni qishda sovuqdan, yozda issiqdan himoyalash imkoniyatini beradi. Har bir uyning tom qismiga o'rnatilgan quyosh panellari aholi va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga uzluksiz elektr energiyasi yetkazib bermoqda. Yo'l va yo'laklar, uy kirish qismiga o'rnatilgan aqlli chiroq hamda berrinnat quyosh yoritish panellari o'ziga xosligi bilan e'tiborni tortadi. Bu yerda "Ipoteka markazi" tashkil etilgan. Bank krediti, subsidiya ajratish, imtiyozlar bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish jarayoni shu yerda bajariladi. Boshqacha aytganda, uy oluvchi fuqarolik pasporti bilan markazga kelib, yangi uy sohibi bo'lib qaytish imkoniyatiga ega.

Sirasini aytganda, bunyodkorlik va yaratuvchanlik xalqimizga xos qadriyatlardir. "Yangi O'zbekiston" massivlari qurilishi esa har bir hududning o'ziga xos timsolini yaratmoqda. Bir-birini takrorlamagan, sharoitga nafislik va zamonaviy me'morlik an'analari bilan uyg'un tarzda yuksalib borayotgan yangi shaharlar ko'hna yurtga ulug'vorlik bag'ishlanmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Sherzod Qoraboyev o'lgan suratlar.

66 YETMISH GEKTARLI "YANGI O'ZBEKISTON" BOG'IDA "YASHIL MAKON" UMUMMILLIY LOYIHASI DOIRASIDA BAHOR VA KUZ MAVSUMINING O'ZIDA 15 MINGDAN ORTIQ DARAXT HAMDA GUL KO'CHATLARI O'TQAZILDI. XONADONLARNI ISSIQLIK TIZIMI BILAN TA'MINLASH MAQSADIDA 21 MING MVT. QUVVATGA EGA MARKAZLASHGAN ISITISH QOZONI QURILMOQDA. SHU KUNGA QADAR DASTLABKI 73 TA KO'PQAVATLI UY-JOYNI QURISH YAKUNLANMOQDA. 420 O'RINLI 3 TA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLI, 990 O'RINLI 2 TA UMUMTA'LIM MAKTABI, 250 QATNOV O'RINGA EGA MARKAZIY POLIKLINIKA QURIB BITKAZILDI.

unutilmas onlarni so'z bilan ta'riflab bera olmayman, — deydi yangi uy sohibasi. — "Marg'ilon binokor ta'mir" korxonasida farrosh bo'lib ishlayman. Oilaviy sharoitimni hisobga olib, menga 3 xonali uy-joy berishdi. Uy juda shinam, hamma ko'chib keldik. Ko'rkam, chiroyli uylarda yashashning zavqi, gashtli o'zgaracha bo'larkan.

— Osmon bilan bo'yashib qad rostlayotgan yangi shaharcha ko'chib kelib, vatan

O'zbekiston Fanlar akademiyasining 80 yilligi



Mashhur olim va adib To'xtasin Jalolov "O'zbek shoirlari" asarida o'tmishda yashab ijod qilgan shoirlarimiz haqidagi ocherklarga o'rin berib, ilm-adab ahli e'tirofiga sazovor bo'lgandi. Olimalarimiz

haqida maxsus, fundamental tadqiqotlar yaratib, ularning merosini xalqqa yaxlit yetkazish borasida zahmat chekkan ijodkorlardan biri esa Mahbuba Qodirovadir.

ILM-FAN FIDOYILARI

FOZILALAR RUHIGA HAMOHANG

U 1919-yili Toshkentda ziyoli xonadonida tavallud topgan. O'rta maktabni tugatgach, hozirgi O'zbekiston Milliy universitetining filologiya fakultetida o'qishni davom ettirdi. Oliy dargohni tugatgach, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti aspiranturasiga doxil bo'ldi. 1961-yilda Nodira hayoti va ijodiy merosi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan Mahbuba Qodirova dastlab shu institutda stenografist, so'ngra kichik va katta ilmiy xodim sifatida xizmat qildi.

1967-yildan e'tiboran Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat adabiyot muzeyida katta ilmiy xodim, so'ng yetakchi ilmiy xodim bo'lib ishlagan. Umrining oxirigacha Sharqning atqoli shoirlari Robiya Balxiy, Zebuniso, Uvaysiy, Nodira, Dilshodi Barno, Saodatbegim, Mushtariy, Muslihabegim, Miskin hamda Anbar Otinining hayoti va ijodiy merosini o'rganish bilan mashg'ul bo'ldi.

XX asrning 60-yillaridan olima Nodiraning o'zbek va fors tillaridagi asarlarini o'nlab dastxat sarchashmalari asosida o'rganib, dastlab "Tanlangan asarlar"ni mukammal so'zboshi, izoh, ko'rsatkich, lug'atlar bilan nashr ettirdi. Eng muhimi, kitobdan shoiraning hali keng ilmiy adab ahliga ma'lum bo'lmagan turli janrlardagi tojikcha she'rlari ham joy olgan. Uni o'qigan kitobxon shoiraning ikki tilda barobar asarlar yaratgan ijodkor ekanini his etadi.

Ana shu jarayonda olima Nodiraning har ikki tilidagi she'rlarini janr, mavzu, timsollar silsilasi, g'oyaviy mundariyasi, ulardagi an'ana va o'ziga xoslikni, san'atkor badiiy mahoratini jiddiy tahlil qildi. Natijada bir necha yillik mehnat hosilasi o'laroq, har jihatdan mukammal ilmiy biografiya — "Nodira hayoti va ijodiy" monografiyasi yuzaga keldi. Keyinchalik kitob rus tilida ham nashr qilindi.

XIX asr shoirlari ijodida an'anaviy ishq-muhabbat mavzusining rang-barang, ayricha tasviri bilan birga, bashar-do'stlik, ma'rifatparvarlik, ilmiy hunar targ'ibi, inson sharafiga singari yuksak g'oyalar tasviri yetakchilik qiladi. Filologiya fanlari nazodiki, zakiy manbashunos Mahbuba Qodirova o'z tadqiqotlarida fanda hali mutlaqo o'rganilmagan ana shu sohaga alohida e'tibor qaratadi.

Shu maqsadda bir qancha manbalarini kuzatdi, "Qarolar falsafasi", "Qo'qoniyar tarixi", "Sobit ul-bashar" singari hali mutlaqo o'rganilmagan yodgorliklarni tahlil qildi. Bir necha yillik izlanishlari samarasi o'laroq, olima o'zbek va rus tillarida o'nlab maqolalar yozib, soha jurnallari, ilmiy to'plamlar, "Adabiyot ko'zusi" singari davriy nashrlarda ommalashtirdi, qomuslarga maqolalar yozdi. Faqat birinchi manbalardan topilgan, yangi dalillar asosida yozilgan, o'zbek va rus tillarida monografiyalari chop ettirdi.

1975-yilda olima O'zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi ixtisoslashgan



ilmiy kengash majlisida hamma zamonlar uchun o'ta dolzarb bo'lgan "XIX asr o'zbek shoirlari ijodida inson va xalq taqdiri" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Kengash majlisida ishtirok etgan soha mutaxassislari muhokamada faol qatnashib, tadqiqotni shu tizimdagi ishlarga qo'yiladigan barcha talablarga to'la javob beradi, deb bir ovozdan ma'qulladi. Shu tariqa Mahbuba Qodirova filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olishga erishdi.

Ilmdagi bu katta yutuq yosh fan doktorining g'ayratiga g'ayrat, intilishiga yanada rag'bat qo'shdi. Adabiyot muzeyidagi ishlari bilan birga, qo'lyozmalarni tavsiflash, kataloglar tuzish, shoirlar ijodining yangi qirralarini tahlil qilish, ilmiy maqolalar yozish, Nodira asarlarining o'zbekcha va ruscha nashrlarini yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Umuman, zabardast manbashunos butun faoliyatini XIX asr shoirlari asarlarini tahlil qilish va keng o'quvchilar ommasini e'tiboriga yetkazishga baxshida etgan ijodkorlardan. Uning Robiya Balxiy xususidagi tadqiqoti ham o'ziga xos ilmiy kashfiyot hisoblanadi.

Adabiyotimiz tarixi, xususan, o'zbek shoirlari ijodini o'rganishda ulkan ishlar qilgan manbashunos Mahbuba Qodirovaning fanimiz ravnaqi yo'lidagi xizmatlari munosib taqdirlangan. Olima "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni, medallar va ko'plab e'tiroflarga munosib topilgan.

Hamidjon HOMIDIY,
filologiya fanlari doktori,
professor



Omina AZIZOVA,
san'atshunoslik fanlari
bo'yicha falsafa doktori

Ayol nozik jussasi, oqiz qo'llari bilan har ikki maydonda g'alaba qozonishi shart, yengilishga haqqi yo'q. Ilmga kirib kelayotgan ayol mana shu og'ir yuk, zahmatli mehnatni tushungani holda bu janggogha qadam qo'yadi. U metin irodasi bilan ilmdagi va oiladagi mushkullarni yengib o'tib, olima bo'ladi. Shuning uchun ham olimaning yutug'i akademik erkaklarimiznikidan kam emas.

Afsuski, bu mashaqqatga hamma ham dosh berolmaydi. Ko'pgina ayollar oila, uy-ro'zg'or tashvishlari sabab ilm-fanni ora yo'lida qoldiradi yoki tashlab qo'yadi. Qolaversa, bizning davrimizga qadar jamiyatda ham xotin-qizlarning ilm olib, biror sohada faoliyat yuritishi borasida qiyinchilik, to'siqlar bo'lib kelganini inkor etolmaymiz. Bu barchamizga kundes ayon bo'lgan gender tenglik masalasi bilan bog'liq. Hozir dunyo olimlarining atigi to'rtinchi qismini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Jahon oliy ta'lim muassasalari professorlarining 10 foizi, akademiklarning 5 foizidan kamrogi olimalardir. Ilmiy muassasalarga rahbarlik qilayotgan ayollar ulushi turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, Yaponiyada 6 foiz, AQSHda 27, Fransiya 29 hamda Ispaniyada 34 foizni tashkil qilayotgani haqida ma'lumotlar bor. Oliy mukofotlarni qo'lga kiritish, laureat bo'lish borasida ham ayollarga ancha mushkul. Olimalar orasida Nobel mukofoti laureati bo'lgan ayollar atigi 3 foiz ekani buni tasdiqlaydi.

Shunga qaramay, ortga chekinmaydigan, jamiyatdagi mavjud stereotiplarni yengib o'tib, ilm-fanda katta yutuqlarga erishib kelayotgan olimalarning borligi bizni quvontiradi. Joriy yilgi Nobel mukofotining tibbiyot bo'yicha sohibasi vengriyalik olima Katalin Kariko ulardan biri. Demak, yana bir ayol ilmda eng yuqori cho'qqini zabt etdi. Bu jasorat, bu mashaqqat boshqalarda ham faxr, rag'bat uyg'otadi. Ilm yo'lida mehnat qilayotgan xotin-qizlarni yanada ko'proq harakatga undaydi.

"Insoniyat ravnaqi uchun xizmat qil"

Ayolning biror sohada faol bo'lishi jamiyatdagi muhitga bevosita bog'liq. Buni mamlakatimiz misolida yaqqol kuzatyapmiz. Oxirgi yillarda xotin-qizlarni ko'plab-quvvatlash, ularning jamiyatda munosib o'rin egallab, o'z yo'lida muvaffaqiyatga erishishi uchun barcha eshiklar ochib berildi. Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, huquq va manfaatlarini ta'minlash, salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilishga qaratilgan ishlar eng chekka hududlarimizgacha yetib borgan. Asosiysi, bu faqat dunyo ko'z o'ngida gender tenglikni ta'minlashgina emas, balki yurtimiz xotin-qizlarini chinakamiga qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bilan ahamiyatli.

Imtiyoz, shart-sharoitlar ham faqat og'izda yoki qog'ozda emas, balki amalda ko'rsatilayotgani o'z natijasini bermog'da. Ayollarimiz orasida ilm egallash, o'qib-o'rganish, kasb-hunarini bo'lish, tadbirkorlikka ishtiyoriy olib boryapti. Ayniqsa, ilm-fanga kirib kelayotgan xotin-qizlar salmog'i oshmoqda. Olima, akademik ayollar safi kengaymoqda. Bugun yurtimiz ilmiy va o'quv

ZAMONDOSH

IKKI KARRA akademik

Ilm yo'lida izlanish igna bilan quduq qazishdek gap. Uning mashaqqati, bedor tunlar zahmati, tinimsiz mehnatini ushbu soha kishilari yaxshi biladi. Balki shuning uchun erkaklar ilm-fanda faolroq bo'lsa, yangi kashfiyotlar qilsa, fan doktori, akademik ilmiy daraja va unvonlarini olsa, u qadar ajablanmaymiz, yaxshi olim, yetuk mutaxassis-da, deb qo'ya qolamiz. Ammo ayollar ana shunday muvaffaqiyatlarga erishsa, alqagimiz, olqishlagimiz, e'zozlagimiz keladi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, ayol bir qo'lida oila, bir qo'lida kitobu qalam bilan ilmga kirib keladi. Ya'ni ikki maydonda birdek mehnat qiladi, fidoyilik ko'rsatadi.


muassasalarida 700dan ortiq fan doktori hamda 5 nafar akademik ayol faoliyat olib boryapti. O'zbek olimalari kimyo, biotexnologiya, qishloq xo'jaligi, fizika-matematika, tibbiyot, astronomiya, filologiya, san'atshunoslik, arxeologiya, tarix va boshqa ko'plab sohalarda o'z bilim hamda qobiliyatlarini namoyon etmoqda. Ularning intellektual ishlari xorijiy ilmiy markazlar tomonidan ham yuqori baholanyapti. Shuningdek, ayni vaqtda 5 nafar o'zbek ayoli Fanlar akademiyasining akademigi sharafiga muayassar bo'lgan. Shu tizimda faoliyat olib borayotgan 5337 ilmiy xodimdan 2081 nafari xotin-qizlar bo'lib, bu jami ko'rsatkichning 38,9 foizini tashkil qilmoqda.

O'zbek olimalarining aksarida bir xislatni sezish mumkin, bu — fidoyilik. Ana shu fidoyilik sabab ular bir qo'lida oila, bir qo'lida ilmi mahkam tutib, ko'zlagan manzili tomon dadil harakatlanadi. Bu yo'lida ko'plab shogirdlar chiqaradi, ustoz degan yuksak maqomga erishadi. Yurtimizning san'atshunos olimalari orasida o'zining ilmiy va olijanob fazilatlarini bilan ajralib turadigan Nigora Karimova ham shogirdlaridan bilganlarini aytmaydi. Ustoz "Faqat o'zing uchun emas, insoniyat ravnaqi uchun mehnat qil" degan naqli hayotiy shioriga aylanirgan.



U yigirma ikki yoshida Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ni tamomlab, ish faoliyatini kino san'ati bilan bog'lagan holda davom ettirdi. Uning O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, senariy-navis, o'nlab xorij filmlarini o'zbek tiliga o'g'irgan tarjimon, qator hujjatli hamda televizion filmlarning senariyi muallifi G'ani Rasulov oilasida tug'ilgani ham shu sohaga yetaklagan bo'lsa kerak. Har holda qizaloq otasiga ergashib, O'zbekiston televideniyesi va "O'zbektelefilm" studiyasidagi qizg'in ish jarayonlari bilan juda erta tanishgan. Va bu qiziqish bora-bora kasb tanloviga aylangan.

Nigora Karimova ijodiy faoliyatini yigirma uch yoshida O'zbekiston davlat teleradiokompaniyasida boshlaydi va bu yerda o'n yil davomida muharrir bo'lib ishlaydi. 1997-yildan esa Fanlar akademiyasi San'atshunoslik institutiga ishga qabul qilindi, shundan buyon ilmiy yo'lida izlanishda. O'tgan yillar davomida olima Markaziy Osiyodagi ilk kino namoyishlari va suratga olish ishlari, birinchi kinofabrikasi va milliy kino maktabining O'zbekistonda hududida tashkil etilishi, mintaqada badiiy kino san'atining shakllanishiga turtki bergani borasidagi arxiv materiallarini jamladi. Shuningdek,



"O'zbek ovozsiz kino", "Yangi to'lqin davrlari" kinofilmlari misolida tadqiqotlar olib bordi.

Ular yaratgan maktablar davom etaveradi

Olima O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha butunjahon jamiyati, O'zbekiston Kinematografiya agentligi, O'zbekiston Milliy kinofondi, Fanlar akademiyasi

hamkorligida o'zbek kino tarixiga bag'ishlangan "O'zbekiston kino san'ati" kitob-albomining chop etilishida boshqosh bo'ldi. Kitob-albomning matn muallifi ham Nigora opaning o'zi. Ushbu manba o'zbek, rus, ingliz tillarida nashr etilgan bo'lib, umumiy hisobda har bir tilidagi nusxa 1000 adadda Istanbuldagi "Mega Basim" bosmaxonasida eng so'nggi texnologiyalar vositasida chop etildi.

Kitobda o'zbek kino tarixining ilk sahifalariga nazar tashlanib, O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida kinonon vatani, oltin beshigi ekani tarixiy-madaniy dalillangan 5 omil orqali ko'rsatilgan. Xususan, 1897-yil 30-oktabrda Toshkentda birinchi kino namoyishi bo'lib o'tgani, 1908-yildan boshlab birinchi o'zbek operatori Xudoybergan Devonov o'zining mustaqil kinosuy-jetlarini suratga olishga kirishgani va xuddi shu yili Xivada, butun Markaziy Osiyoda birinchi kino va fotolaboratoriyasi ochilgani, 1924-yilda esa O'rta Osiyoda birinchi "Buxkino" kino shirkati tashkil etilib, 1925-yilda Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib "O'lim minorasi" nomli ovozsiz badiiy film suratga olingani ko'rsatildi. Qolaversa, 1925-yilda Tosh-

kent shahridagi "Eshonquli" madrasasi binosida O'rta Osiyoda birinchi "Sharq yulduzi" kinofabrikasi ish boshlagani ham mintaqada kinochilik san'ati rivojida yurtimiz asosiy o'rinni egallaganini dalillaydi.

Kitobning badiiy qimmatini oshiruvchi muhim sifatlardan biri nodir fotoillustratsiyalardir. Jarayonda O'zbekiston kino san'ati muzeyi fondida saqlanayotgan fotonegativlar innovatsion texnologiyalar yordamida raqamlashtirilib, ular asosida 3 mingdan ortiq fotografiya tayyorlandi. Shu tarkibdan 1000 dan ziyodi kitob uchun illustratsiya sifatida qo'llanildi. O'zbek kinosining o'ziga xos, betakror tarixi, undagi shaxslarni 485 betli hajmi sig'irish bir oz murakkab kechdi. Zotan, kinochilgimiz tarixida iz qoldirgan insonlar, filmlar, voqealarni bunday kitoblarning 10 jildiga ham sig'irish dushvor masala. Bu esa kelgusida ayni ishlar yuzasidan izlanishlar doirasini kengaytirib, davomiy nashrlarga yo'l ochadi.

Nigora Karimova olima sifatida na-faqat nazariy, balki amaliy jarayonlarda ham faol ishtirok etish orqali ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shib kelmoqda. O'nlab shogirdlarning ilmiy ishlariga rahbarlik qilish barobarida, san'atshunoslik tarixini o'rganishdan, uni xalqimizga ko'rsatib berishdan charchamaydi. Ana shunday sa'y-harakatlari orqali 2016-yilda O'zbekiston Badiiy akademiyasi Toshkent fotolar uyida tashkil etilgan "Muhrlangan davr" kino-foto ko'rgazmasi, 2015-2016-yillarda Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxonada doirasida tashkil etilgan "Sinemateka" kinoklub konsepsiyalarini yaratdi. 2018-yilda bo'lib o'tgan "Kinolektoriy" media-institutsiyasi ham Nigora Karimovanning muallifi ishidir.

Olima 2017-2018-yillarda Shveysariyaning O'zbekistondagi elchixonasi ko'magida tashkil etilgan "Kinolektoriy" ma'rifiy media-loyihasida ilmiy konsultant bo'lib ishtirok etdi. Loyiha doirasida Toshkent, Nukus, Xiva, Buxoro shaharlarida ma'ruza va kinoeksponatsiyalar tashkil etdi. "O'zbekkino" milliy agentligi buyurtmasi bilan suratga olingan "Ovozsiz kino tarixidan", "Shuhrat Abbosov" hujjatli filmlarining ilmiy maslahatchisi, "Xudoybergan Devonov" ilmiy-ommabop filmining hammuallifi va ilmiy maslahatchisi, 2020-yildan Respublika "Kinofondi" qoshidagi jamoatchilik kengashi raisi.

Nigora opa "O'zbekiston kinoindustriyasining hozirgi holatiga oid tahlil (2007-2017)" mavzusida analitik tadqiqotlar olib borgan. 2017-2019-yillarda esa UNESCOning O'zbekistondagi vakolatxonasi tasarrufidagi qator loyihalarga ekspertlik qildi. 2020-yildan O'zbekiston kinematografiya agentligi qoshidagi Badiiy kengash a'zosi hisoblanadi. Bundan tashqari, FIPRESCI xalqaro kinotanqidchilar federatsiyasining O'zbekistondan yagona o'zbek ayol a'zosi hamdir.

Ana shunday ilm fidoyilari bor ekan, jamiyat, mamlakat taraqqiy etishdan to'xtamaydi. Ularning ilm-fanda yo'qan mash'alalari, yaratgan maktablari davom etib boraveradi. Biz esa mamlakatimiz ilm-fanida olima ayollarimiz soni ko'payaverishi tarafdorimiz. Zero, dunyo beshigini tebratgan ayol ikki karral akademikdir. Ular Uchinchi Renessansga qadam qo'yish yo'lidagi islohotlarning asosiy kuchi va tayanchiga aylanishi shubhasiz.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1246.
43301 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Abduravof Qorjovov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'ZA yakuni — 23:10 Topshirildi — 00:20